

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI
«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI»
KAFEDRASI

*“Samarqand tarixiy obidalarini tarixiy voqelikda
tasvirlash”*

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

*Bajardi: Kasb ta'lim (Amaliy san'at)
4 kurs talabasi OLIMOVA MAVLUDA*

Ilmiy rahbar: o'qituvchi D.I.MAMUROVA

Bitiruv malakasi ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
_____sonli bayonnomasi «_____» _____ 20.. yil

BUXORO – 2020 yil

MUNDARIJA

Kirish. Mavzuning dolzarbligi **3 bet.**

I. BOB. Tarixiy va navqiron Samarqand.

1.1§. Turizmni rivojlantirishda ochiq osmon ostidagi muzey..... **11 bet.**

1.2§. Samarqand — jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri, Rim, Afina, Vavilonlarning tengdoshidir..... **15 bet.**

II. BOB. Rang tasvirning o`ziga xoslik talqini va masalasi.

2.1§. Tasviriy san`atning turi va janrlari..... **23 bet.**

2.2§. Manzara - tasviriy san`atning alohida janri. Manzara kompozitsiyasi..... **36 bet.**

III. BOB. Samarqand tarixiy obidalarni tasvirlashda ijodiy jarayon mohiyati va bosqichlari

3.1§. Samarqand manzara kompozitsiyasida ijod qilgan rassomlar. ... **45 bet.**

3.2§. Me`moriy obidalar aks ettirilgan kompozitsiyani bajarishda manzarani kuzatish va o`rganish..... **55 bet.**

3.3§. Tasvirlashda ijodiy jarayon mohiyati va uning asosiy bosqichlari..... **63 bet.**

IV. Xulosa. **75 bet.**

V. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati. **77 bet.**

VI. Ilovalar..... **79 bet.**

K I R I S H

O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy me'rosi xalq pedagogikasi an'alarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan Tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san'at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi. Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi. Talabalarni ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga molik bo'lgan bu tadbirni amalga oshirishga ko'p yillar davomida milliy boylik bo'lib kelgan xalqimizning madaniy va maishiy hayotga keng tatbiq etilgan go'zal xunarlaridan biri tasviriy san'atni o'rgatish va u soha bo'yicha bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ham hozirgi kunda juda katta ijtimoiy pedagogik ahamiyatga egadir.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jaxonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritiladi.

Rang orqali natyurmort ishlash tasviriyl san'atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiya, yorug'-soyalarni o'rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi.

Tasviriyl faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiyl dunyosini boyitadi. Talabalar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviyl voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go'zalliklarini chuqur idrok etadilar.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida barcha soxalarda bo'lgani kabi san'at yo'nalishida ham juda katta e'tibor qaratildi. Ijtimoiyl ong shakllaridan biri - san'at-tabiat va jamiyatda bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan voqea-hodisalarni badiiyl tasvirlarda ifodalanishidir. Tasviriyl san'at o'zida moddiyl olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo'ladi va ularni siyosiy, axloqiy va badiiyl jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikning o'zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko'ra tasviriyl san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi.

Tasviriyl san'atda manzara janrida san'at asari yaratishning eng ijobiyl va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiyl obrazlarda ifodalaydi.

O'zbekiston tasviriyl san'atining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiyl va ijodiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi O'zbekiston Respublikasinig birinchi prezidenti I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiyl baholab, ilmiyl davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiyl merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat

qurilishiga tatbiq etmoqimiz kerak.”¹ Shu maqsadda Respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo’lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. San’at, xususan tasviriy san’at istiqlol davrida mafkuraviy - g’oyaviy, ma’naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy o’zgarishlarga san’at asari kabi tashviqot - targ’ibot vositalariga o’xshab tezkorlik bilan javob bera oladigan ijodiy targ’ibotlaridan kelib chiqqan holda davom etmoqda.

Ko‘p asrlik tarixga ega O‘zbekiston tasviriy san’atida manzara janrida yaratilgan san’at asarlari murakkab va serqirra badiiy obrazli tizimdir.

Boshqa tasviriy san’at turlari kabi manzara janri ham doimiy rivojlanishda. Ushbu janrning psixologik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tasviriy san’at tarixini kundan-kunga yangi ma’lumotlar bilan boyitmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni muhtasarlav quyidagilarni ta’kidlash joiz:

Ajdodlarimiz yaratgan buyuk san’at asarlari, madaniy-ma’rifiy boyliklar xalqimiz, ayniqsa yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai- nazardan ushbu bitiruv malakaviy ishida tasviriy san’at asarlarida **“Samarqand tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash”** mavzusida kompozitsiya ishlashni keng miqiyosda o‘rganib, ta’lim jarayonlarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qituvchi – o‘quvchilarni ushbu janrda asar yaratish orqali tabiatni, ekologiyani, shuningdek, atrof-olamimizni o‘rab turgan jamiki tabiat unsurlarini asrab-avaylash bilan birga ulardan bahra olish san’atiga ega bo‘lishni taklif qilinadi.

*1 Yuksak ma’naviyat-Yengilmas kuch kitobidan

Binobarin, oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning grafikaviy tayyorgarligini mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirish tadqiqotimizning muammosini belgiladi va mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Bu yechimini kutayotgan muammolarni hisobga olgan holda, shuningdek fan va texnika taraqqiyotining hozirgi rivoji, zamonaviy ishlab chiqarish darajasi, oliy texnik ta'lim tizimida me'mor mutaxassislarni tayyorlashdagi kamchiliklardan kelib chiqib, mustaqil ta'limni faollashtirish asosida grafikaviy tayyorgarligini takomillashtirish zarur.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boy tarixga ega bo'lib, uni Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Shahrisabz kabi ko'pgina shaharlarning qadimiy yodgorliklarida ko'rish mumkin. Ushbu yodgorliklarning rang-barangligi, yuksak badiiy saviyasi, falsafiy va ma'naviy mazmuni bilan birga bir necha asrlar davomida butun dunyo ahlini o'ziga rom qilib kelmoqda.

Shaxs tarbiyasi va uning ma'naviy jihatdan boy tarzda ta'lim olishiga oid masalalar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida olim-u fuzalolar, mutafakkirlar, psixologlar, faylasuf va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qomusiy allomalar – Abu Nasr Forobiy, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning komil inson tarbiyasi va uning mohiyati haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil etishdan shunday xulosaga keldikki, mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatlar O'zbekiston Respublikasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqiyosida so'nggi yillarda bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari respublikamizda A.A.Abduqodirov,

J.G'.Yo'ldoshev, N.Sayidaxmedov, F.R.Yuzlikaev, J.Tolipova, N.A.Muslimov, Sh.E.Qurbonov, O'.Q.Tolipovlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Ularning ishlarida oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisini metodik tayyorlash tizimini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash, oliy pedagogik ta'limda o'qituvchini metodik tayyorlashning turli modellarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan masalalar tadqiq etilgan.

Tasviriy san'atni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'qitish metodikasi Hamdo'stlik mamlakatlari va O'zbekiston olimlaridan V.Kuzin, N.Rostovstev, O.Arutyunyan, V.Strokov, B.Baymetov, J.Darmenov, R.Hasanov, Q.Qosimov, N.Tolipov, A.Amanullaevlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatish masalalari O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy etilishi, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, o'rta umumta'lim maktablarida o'qitilishi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbek olimlaridan A.Amanullaev, S.Abdullaev, X.Alyaminov, B.Azimov, B.Baymetov, S.Bulatov, J.Darmenov, B.Oripov, A.Sulaymonov, N.Tolipov, O.Xudoyorova, Q.Qosimov, R.Hasanov va boshqalar tomonidan tasviriy va amaliy san'atni o'qitish metodikasiga oid ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Mazkur tadqiqotlarda shaxsni tasviriy san'at me'morchilik namunalari asosida badiiy-estetik tarbiyalash, uning kasbiy mahoratini o'stirishda shaxs rivojlanishining ichki ehtiyojlari, psixologik xususiyatlarini inobatga olish, zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berishda yoshlarga o'tmish madaniy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik asoslari e'tirof etiladi.

Ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida ta'lim tizimi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni isloh qilish, rivojlantirish muammolari, Davlat ilmiy-texnik dasturining "Yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy

qadriyatlar asosida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish" bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: oliy ta'lim tizimida tarixiy obidalardan Tasviriy san'at fanini o'qitishda foydalanish, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash va mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari: mavzuning maqsad va vazifalari yuqorida keltirilgan rassomchilikning ijodiy jarayonidagi davriy bosqichlarni o'rganib, bugungi kunga qadar rivojlanish jarayonini tadqiq etishini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tasviriy san'at o'zining funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda, birinchi bo'lib jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Tasviriy san'at va madaniyatning buyuk asarlari va tog' manzarasida ishlangan kompozitsiyaga bag'ishlangan qator tasviriy san'at asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy g'oya va mafkuraning shakllanish jarayonida tabiatga mehr uyg'otuvchi san'at sohasiga aylandi.

Mavzuni yoritishda asos qilib **olingan tog'** manzarasi kompozitsiyasini ishlash keng qamrovda batafsil o'rganilishi va ilmiy adabiyotlarga yanada ko'proq kirgizilishi kabi masalalar ilm-fan oldidagi qator vazifalardan biridir. - Yozgi etyud mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida manzara janrida kompozitsiya ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o'rganish;

- *"Samarqand tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash"* mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishish;

- *"Samarqand tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash"* mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali o'zbek millatiga xos milliy urf-odat va an'analarning tutgan o'rnini va ahamiyatini ko'rsatish;

- *"Samarqand tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash"* mavzusida ishlangan kompozitsiyani dars jarayonlarida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish.

Tadqiqot obyekti. Oliy ta'lim tizimida "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga ta'lim berish tizimi.

Tadqiqot predmeti. Talabalarning tasviriy san'at o'qitish tizimida ta'lim mazmuni va texnologiyasi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at ta'lim jarayonining sifatini oshirish mumkin, agar:

- talabalarning o'quv-amaliy faoliyati mazmuni zamonaviy ishlab chiqarishda me'moriy obidalar ijodiy - ish faoliyati mazmuni asosida qurilsa;

Tadqiqot metodlari:

- *kuzatuv* – oliy ta'lim jarayonida talabalarni amaliy tayyorgarlik va mustaqil ta'lim olish faoliyatining holatini o'rganishda;

- *nazariy tahlil* - zamonaviy ishlab chiqarishda talabalarning ijodiy-ish faoliyati o'rganish, ilmiy tadqiqot muammosi bo'yicha umumpedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishda qo'llanildi;

- *so'rovnoma va test o'tkazish* - talabalarning mustaqil ta'lim olishga munosabati, uni tashkil etishning mavjud holati hamda o'quv ishi natijalari va ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyatini o'rganishda foydalanildi;

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Oliy texnik ta'limni takomillashtirish Konstepstiyasi" tashkil etadi. Shuningdek, psixologiya va pedagogikaning shaxs ijodkorlik faoliyatining mohiyati, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi qoidalar va oliy ta'lim pedagogikasining zamonaviy nazariyasi tashkil etadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Markaziy Osiyo xududidagi tarixiy yodgorliklarning tahlil qilish
2. Samarqand me'morchiligini o'rganish va uning asoslarini ochib berish
3. Markaziy Osiyo me'morchilik obidalarini tasviriy san'atda aks ettirilishi hamda Samarqand me'morchiligining tutgan o'rni haqida mulohazalar yuritib, xulosalar chiqarish.
4. Samarqand tarixiy obidalarini o'rganishda uning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratish.

Ilmiy yangiligi:

1. Markaziy Osiyo xududidagi tarixiy yodgorliklarning tahlil qilindi.
2. Samarqand me'morchiligini o'rganildi
3. Samarqand tarixiy obidalarini tarixiy voqelikda tasvirlashda amaliy foydalanish usullarini ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan nazariy xulosalardan oliy ta'limi tizimida talabalarni amaliy tayyorgarlik mazmunini modernizatsiyalashda, ularning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va samaradorlashtirishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ishlab chiqilgan amaliy-uslubiy materiallardan tasviriy san'at bo'yicha talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda qo'llash mumkin.

I. BOB. Tarixiy va navqiron Samarqand.

1.1§.Turizmni rivojlantirishda ochiq osmon ostidagi muzey.

Mamlakatimizning sayyohlik salohiyati jahonning turizm rivojlangan davlatlaridan kam emas. Ya'ni, bizda borib ko'rish, ziyorat qilish, zavq olish mumkin bo'lgan turistik ob'yektlar ko'p. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi tarixiy shaharlarimizdan tashqari, mamlakatimizning boshqa istalgan hududida ekologik turizm, agroturizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyatlari bor. Bugun dunyo mamlakatlarida kuzatilayotgan turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish tendensiyasi keyingi yillarda bizning yurtimizda ham yaqqol namoyon bo'la boshladi. Prezidentimizning mazkur tarmoqqa bo'lgan alohida e'tibori natijasida O'zbekistonning boy turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, sayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida uzoq istiqbolga mo'ljallangan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi yo'nalishlar – yangi taassurotlar. Yurtimizga kelayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish, ular uchun zamonaviy servis xizmatlarini yo'lga qo'yish, xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar tufayli o'tgan yili viloyatga 2017 yildagidan ikki borabar ko'p, ya'ni 2 million mahalliy hamda 351 ming xorijlik sayyoh keldi. Ularga 116,7 million dollarlik xizmatlar ko'rsatildi. Xorijiy sayyohlarning viloyatda qolishi o'rtacha 2,5 kunni tashkil etdi. Bu yil esa 2,5 million mahalliy va 500 ming chet ellik sayyohning kelishi kutilmoqda.

Samarqand bugungi kunda sayyohlarni nafaqat bir necha asrlik tarixiy obidalari bilan, balki betakror tabiat manzaralaridan zavq olib, mazmunli dam olish, sayr qilish, milliy urf-odat va an'analar bilan yaqindan tanishish, sharq shirinliklari, sarxil meva-sabzavot va bog'dorchilik mahsulotlaridan tatib ko'rish, sharqona bozorlarda xaridlarni amalga oshirish, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, davolanish va boshqa imkoniyatlar mavjudligi bilan o'ziga rom etmoqda, – deydi Samarqand viloyati turizmni rivojlantirish

departamenti boshlig'i Dilshod Narziqulov. – Ayni paytda viloyatimizda 541 ta turistik ob'yekt, 157 ta turoperatorlik sub'yekti mavjud. Bir vaqtning o'zida 6100 nafar mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega 131 ta mehmonxona va 93 ta mehmon uyi faoliyat ko'rsatmoqda. 209 ta turistik sinfga mansub avtotransport vositalari, 230 nafar hamroh-tarjimonlar sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda.

Yaqin yillargacha sayyohlar uchun taklif etiladigan yo'nalishlarimiz asosan Samarqand shahridagi tarixiy obidalar va muzeylar bilan cheklanardi. Lekin bugun viloyatimizda turizmning tarixiy-madaniy, ziyorat, ekologik, gastronomik, madaniy-ma'rifiy, arxeologik, sog'lomlashtirish va agroturizm yo'nalishlari jadal rivojlanib, yil sayin ulardagi ob'yektlar ko'payib bormoqda. Jumladan, keyingi yillarda ziyorat turizmi marshrutiga Samarqand shahri va viloyatimizning boshqa tuman, shaharlaridagi Islom Karimov maqbaramajmuasi, Xo'ja Abdu Darun, Xo'ja Abdu Berun, Xo'ja Ishoqi Vali, Abdurahmon ad-Dorimiy, Shayx Xudoydodi Vali, Said Ibrohim Ibn Imomi Musoi Kozim ziyoratgohlari qo'shildi. Ekologik turizm yo'nalishiga qo'shilgan Jomboydagi Zarafshon milliy bog'i, Samarqand tumanidagi Ohalik va Mironqul tog'li qishloqlari, Urgutdagi Taxtaqoracha dovoni va Beshkon, Omonqo'ton, Qoratepa qishloqlaridagi suv omborlari va g'orlar, tog'li hududlar, Nurobod tumanidagi Sazag'on, Anjirli, Jom, Ibroyim ota aholi yashash maskanlaridagi rekreatsion hududlar, Qo'shrabotning Pangat, Qizilbel, Qoratosh, Jonbuloq qishloqlaridagi buloqlar atrofi, Fozilmon davlat o'rmon xo'jaligi sayyohlarga manzur bo'lmoqda. Ushbu ob'yektlar atrofida servis shoxobchalarining tashkil etilgani hudud aholisi bandligini ta'minlash va ularning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlayapti. Shuningdek, Zarafshon milliy bog'ida tashkil etilgan ekoturizm maskani, Samarqand tumanining Bo'zi mahallasidagi "Chinaras" agro-eko turizm hududi, Konigil mahallasidagi milliy kulolchilik buyumlari ustaxonasi ham sayyohlar bilan gavjum bo'lmoqda. Shu paytgacha Samarqand gastronomik turizm marshruti asosan "Samarqand nonlari" va "Qovun sayli"dan iborat bo'lsa, endilikda ular

qatoriga “Palov sayli”, “Sharq shirinliklari”, “Kishmish”, “Silk Road Bazaar” festivallari, “Novvot sayli”, “Kabob sayli” va boshqa shu kabi tadbirlar qo‘shildi. E’tiborlisi, mazkur festivallar faqatgina Samarqand shahrida emas, boshqa tuman va shaharlarda ham o‘tkazilmoqdaki, bu viloyatimizning barcha hududlarida turizmni rivojlantirish uchun keng yo‘l ochmoqda. Joriy yilda Samarqand tumani Konigil mahallasida joylashgan “Konigil House” gastronomik va etnik-animatsion markazi yangi yo‘nalish sifatida kiritildi. Bu yil yana Samarqanddagi Bog‘ibaland anjirzorlarini ham yo‘nalishga kiritib, sayyohlarning ushbu jannat mevasidan tatib ko‘rishlari va bu bog‘lar bilan tanishishlari uchun qulaylik yaratish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, keyingi paytda viloyatda agroturizm va sog‘lomlashtirish turizmi ham ommalashib, ushbu yo‘nalishlarda ham sayyohlar oqimi oshmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Samarqandga xorijdan kelayotgan sayyohlarning ko‘p qismi xalqimizning boy san’ati va madaniyati, betakror folklor va etnografik asarlarimizga, milliy xalq o‘yinlarimizga ham juda qiziqadi. Shundan kelib chiqib, madaniy-ma’rifiy turizm marshrutiga “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, Registon maydonidagi Sherdor va Mirzo Ulug‘bek madrasalarida folklor guruhlarining konsert dasturlari, tumanlarda “Chavqi”, “Beshqarsak”, “Sarbozi” folklor jamoalarining chiqishlari, Registonda 3D shousi, “El-merosi” milliy madaniy teatri, “Uloq-ko‘pkari” o‘yinlari, alla aytish, chaqaloqni beshikka belash marosimlarini namoyish etish qo‘shildi. Xususan, yaqinda Bulung‘ur tumanida “Baxshilar festivali” tashkil etildi. Joriy yilda Samarqand turizm yo‘nalishlariga yangi – ta’lim turizmi kiritildi va bunda eng ommalashgan va sayyohlarni o‘ziga jalb qilgan maskan Payariq tumanida bunyod etilgan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 11 yanvar kuni Samarqand viloyatiga tashrifi chog‘ida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi bilan tanishib, ushbu maskan bizga buyuk ajdodlarimizning kimligini anglatishi, ma’naviyat, ma’rifatni targ‘ib etishini ta’kidlagan va bu yerni har bir

yurtdoshimiz ziyorat qilishi maqsadga muvofiqligini qayd etgan edi. Ayniqsa, xalqaro markazdagi muzey va undan o‘rin olgan tarixiy eksponat va ashyolar, buyuk muhaddis Imom Buxoriyning hayot yo‘li xronologik tarzda aks ettirilgan suratlar har bir sayyohni o‘ziga rom etib, hayratini oshirishi tabiiy. Shu bois bugun Samarqandga keladigan, Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qiladigan har bir inson mazkur markaz va muzeyga borish istagini bildirmoqda. Gap ta’lim haqida borar ekan, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018 yilda Samarqand xalqaro “Ipak yo‘li” turizm universiteti tashkil etilganini alohida ta’kidlash lozim. Turizm sohasi uchun zamonaviy fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan mazkur ta’lim muassasasi uchun ayni paytda bugungi kun talablariga to‘la javob beradigan bino va inshootlar bunyod etilmoqda. Faoliyat boshlaganiga qisqa vaqt bo‘lsa-da, hozirgacha universitet o‘ndan ortiq xorijiy oliy ta’lim muassasasi bilan hamkorlik shartnomalari imzoladi. Bu esa universitet talabalarining xorijda o‘qishni davom ettirishi, bilim va malakasini oshirishi uchun keng imkoniyat yaratib, pirovardida, mamlakatimiz turizm sohasi uchun yetuk kadrlar tayyorlash va soha taraqqiyotiga xizmat qiladi.

1.2§. Samarqand — jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri, Rim, Afina, Vavilonlarning tengdoshidir.

Samarqand — jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri, Rim, Afina, Vavilonlarning tengdoshidir. O'tmishning shoirlari va tarixchilari uni chinakam «Sharq jannatmakon bog'i», «Yer yuzi», «Sharq olamining bebaho durdonasi», «Jahon mamlakatlarning bezagi», «Sharqning Rim kabi shahri»... va hokazolar kabi go'zal o'xshatishlarni bejiz bag'ishlamagan edilar. Samarqand vujudga kelgan Zarafshon daryosi vodiysining tabiiy mo'l-ko'lligi «Avesto» ning muqaddas she'rlarida maqtalgan edi. Eramizdan avvalgi 1-ming yillikning o'rtalarida yunon manbalari Samarqand shahri haqida nomini Marokand shaklida aytib o'tganlar, o'rta asrlar davrida qadimiy Samarqandning xarobalari Afrosiyob deb nomlanadigan bo'ldi. Samarqand shahri haqida eng birinchi yozma fikr eramizdan avvalgi 329 yilga oid, u paytda Iskandar Zulqarnayn boshchiligidagi yunon-makedon lashkarlari uni ishg'ol qilgan. Eramizning birinchi asrlarida shahar qudratli Kangyuy davlati hukmronligiga tushib qolgan edi. VI—VII asrlarda Samarqandda turk hoqonligi bilan yaqin aloqada harakat qilgan ishxiy hukmdorlari taxtga chiqqan. VII asr oxirida – VIII asr boshida arab istilochilariing lashkarlari paydo bo'ldi. 1220 yil bahorida shaharni Chingizxonning qo'shinlari qo'lga olib, uning qadimgi zaminigacha buzib tashlaganlar. XIV asr — XV asrning o'rtalarida Samarqandning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining yangi beqiyos yuksalishi yuz beradi. Aynan shu davrda Temur tomonidan yaratilgan, Volgadan Gang daryosigacha, Tyan-Shan tizmasidan Bosforgacha yastanib yotgan ulkan davlatning poytaxti sifatida Samarqand jahonda mashhur bo'ladi. Amir Temur poytaxti Samarqandni go'zal shaharga aylantirishni orzu qilar edi. Hindiston, Afg'oniston, Eron, Suriya, Kavkaz orti davlatlari, Turkiyaga qilgan har bir harbiy yurishdan u Samarqandga eng mohir me'morlar, zargarlar va allomalarni olib kelar edi. O'z davlati ichida Temur yaratuvchi ijodkor edi. U rassomlar va shoirlar, mutafakkir va olimlarni saxiylik bilan qo'llab-quvvatlar edi. Bu fe'l-atvor keyinchalik uning nevarasi – Mirzo Ulug'bekka ham o'tadi,

uning besh asr avval yaratilgan yulduzlar katalogi va xaritasi butun dunyoni hozir ham hayratda qoldiradi. Aynan Temuriylarning hukmronligi davrida Samarqand o'zinnig eng yuksak kamolotiga yetgan edi. Evropa davlatlarining hukmdorlari bu shaharni ziyorat qilishni bir o'zlari uchun sharaf deb bilganlar. Samarqand — afsonaviy shahar. Bu yerda har bir tosh, jarlik yoki suv havzasi - o'tmishdan so'ylovchi tirik bir ertak, shaharning har bir dahasi (guzari yoki mahallasi) o'z afsonalarini go'yoki shajarasi kabi saqlab keladi. Ba'zan har bir samarqandlikning qalbiga aziz bo'lgan biror tarixiy voqea yoki joy xam afsonalarga ko'miladi. Zamonaviy Samarqand - holisining soni va hududining kattaligi, sanoat ahamiyatiga ko'ra O'zbekistonning Toshkentdan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi shahri bo'lib, jahon turizmining markazidir. U Zarafshon daryosining o'rta oqimi chap qirg'og'ining adirli qismida joylashgan. Tabiatning o'zi Samarqandga go'zal iqlim va toza suv in'om etgan – u o'zbek zaminining jannatmakon yerida qad ko'targan. Samarqandning iqlimi kontinental-subtropik iqlim. Bulutsiz kunlarning soni yiliga 155 ta, quyosh charaqlagan soatlar yig'indisi 2916, yilning o'rtacha harorati +13,4, yanvar oyi – 0, iyul oyi +26. Absolyut minimum –27, absolyut maksimum +45. Aholisi 364,3 ming kishi. Shaharning asosiy suv manbai Zarafshon daryosi, Dargom, Siyob, Shaudar ariqlaridir.

Tarixiy obidalarini tasvirlash estetik tarbiyada muhim ekanligi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida me'morchilik san'ati boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib qismini tashkil etadi. O'zbek diyori o'zining vujudga kelib gullab – yashnagan san'at turlarining betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikir yuritadigan bo'lsak, me'morchilik san'ati shox ildizlari insoniyatning iptidoiy davriga borib taqalishining guvaxi bo'lamiz. Ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqashaharlardagi me'morchilik san'ati yodgorliklari o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo'lib xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan

badiiy madaniy merosni tashkil etadi. Anashuning uchun ham tarixiy me'morchilik obidalarini tasvirlash estetik tarbiyada muhim o'rinni egallaydi. Tarixiy me'morchilik obidalarini tasvirlashda, me'morchilik san'ati va uning tarixi bilan yaqindan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Xalq ustalari tajribasi, bilim va malakalari avlodlar orqali vaqt sinovidan o'tdi. Ustalar tomonidan asrlar mobaynida to'plangan boy madaniy meros, yorqin ranglar jilosi, nozik didli bezaklar, yuqori madaniy saviyadagi naqshlar xalq memorchilik yodgorliklarida o'z aksini topgan. Ustalar mahalliy xom ashyolardan mohirona foydalanib, ularning hammasini o'z ijodlarida hamohang ishlatishgan

Markaziy Osiyoning er. avv. III asrdan to bizning III asrgacha qal'alar, katta sonli oilalar uchun turar joylar, alohida qurilgan yirik istehkomlar, mahallalar, shahar aholisi yashashi uchun uylar, hokimlar uchun qurilgan saroylar, ibodatxonalar arxitekturalari bizga ma'lum. Monumental inshootlar xom g'ishtdan yoki paxsadan qurilgan. Devorlari loy yoki ganch bilan suvalgan. Ba'zi hollarda devorlar sirtiga toshlar terilgan. Toshdan kerakli shaklga ega bo'lgan xoshiyalar, shaklli detallar, qabariq sirtga ega bo'lgan tasvirlar, haykallar, ustunlarning poyi va usti-boshalarini yasashgan. Binolar bezaklari ganch va sopoldan yasalgan. Qadimiy yodgorliklarda grafik bezaklar ham topilgan. Tuproq-Qal'a xonalari devorining birida erkak boshining tasviri aks etgan.

VI-VIII asrlarga kelib qurilish texnikasining rivojlanishi natijasida, avvalgilariga nisbatan mukammalroq bo'lgan bino yopmalari, gumbazlar, yangi ko'rinishga ega bo'lgan bino shakllari topildi. Amaliy dekorativ bezak san'atida realistik tasvirlar shartli ifodalana boshlandi. Saroy devorlarining namoyonlari, yo'l ichidagi, xoshiyalar va boshqa geometrik shakllarga chizilgan naqshlar bilan to'ldirib bezatila boshlandi. Shu davrga mansub (*Panjikentdagi Varaxsha saroyida*) devoriy bezaklarda saroy ahlining maishiy, jang, ov qilib turgan vaqtlari tasvirlanganini ko'rsa bo'ladi. Devoriy rang tasvir asarlarda afsonaviy va ertak qahramonlari yovvoyi hayvonlar, ajdarholar bilan jang qilayotgan

vaqti tasvirlangan. Afsonaviy va real hayvon va qushlarning tasvirlari ham uchraydi. Bu tasvirlarning xarakterli tomoni, tasvir qora va qizil rangli chiziqlar bilan o'rab qo'yilgan. Tasvirlarda naqqoshning kompozitsion shartlilikka erishishga harakat qilish xoxishi boriligi ko'rinib turibdi. Antik qal'a-shaharlar o'rniga feodallarning qasrlari va ularni o'rab turgan oddiy xalq uylari paydo bo'la boshladi, ularga juda noyob bo'lgan, ganchdan o'yilib, haykallar yasaldi. Feodal tuzumli, hunarmandlik-savdogarlikka asoslangan yashash joylari paydo bo'la boshladi. Qurilish ishlari mukamallashib bordi. Pishgan g'isht va ganch ko'p miqdorda ishlatila boshlandi.

VIII-XIII asrlarga kelib feodalizmning rivojlanishi bilan siyosiy, madaniy-mafkura harakterida katta o'zgarishlar bo'lganligi san'atda ham o'z aksini topdi. Islom dinini tarqalishi naqqoshlik san'atining rivojlanishiga olib keldi. Yangi turdagi maschidlar, minoralar, maqbaralar, madrasa va xonaqolar, madaniy binolar vujudga kela boshladi. Shaharlarda qasrlar, karvon-saroylar, hammom va boshqa inshootlar qurila boshlandi. Binolarni bezash ishlari, naqqoshlik san'atining rivojlanishiga olib keldi. Geometrik naqshlar juda keng qo'lanila boshlandi. Afrosiyobdagi va Somoniylar saroyining devorlaridagi o'yma girix bunga yorqin misol bo'la oladi

XI-XII asrlarga kelib naqqoshlik san'ati asosan memorchilikda rivoj topdi. Bu esa me'morchilik obidalarini ko'rkamlashuvuga olib keldi. Buxoro, Samarqand, Xorazm, Huroson shaharlarida xalq ustalari naqshlar bilan bezatilgan hashamatli maschidlar, madrasalar, maqbaralarni bunyod ettirishdi. XI-XII asr monumental me'morchiliklarida badiiy dekorativ bezash ishlari muhim o'rin egalladi. Bezak ishlarining usullari, turli-tumanlilik e'tiborga loyiq.

O'zbekistonda o'rta X-XII asrlarga kelib arxitektura qurilishlari asosan har xil shakldagi g'ishtlar yordamida ajoyib binolar qurilishining rivojlanishiga qaramay, asosiy e'tibor binolarning ichki va yog'ingarchilik tegmaydigan tashqi qismlari ganch o'ymakorlik ishlari bilan bezatishga qaratilgan.

Albatta O'rta Osiyo san'ati va madaniyati taraqqiyotining muhim bosqichi XIV asrning 70-yillaridan boshlandi. Bu davrga kelib, dastlab O'rta Osiyo, so'ngra jahon miqiyosida o'zini adolatli hukumdor sifatida namoyon etgan Amir Temur (1336 - 1405) hokimiyat tepasida bo'lgan davrda Samarqand Sharqdagi yirik imperiyaning markaziga aylandi. O'z imperiyasi poytaxti bo'lgan Samarqandning shuhratini oshirishga harkat qilib, mohir usta, hunarmand va binokorlar ijodidan foydalandi. Shahar atrofida obod qishloqlar barpo etildi. U to'g'ilib o'sgan Kesh shahriga (hozirgi Shahrisabz) ham katta e'tibor berdi. O'rta Osiyoning bir qator yerlariga yirik inshootlar qurdiradi. Jahon savdo yo'lini yana Samarqanddan o'tkazdi. (Oltin O'rda hukumronligi davrida karvon yo'llari u yerdan chetlatilgan edi). Temur o'zining butun faoliyatida o'z saltanatini mustahkamlash va abadiylashtirish uchun fan, san'at va adabiyotdan foydalanishga harakat qildi

Temuriylar sulolasi davrida O'rta Sharqning o'rta asr madaniyati va san'ati gullagan davrni boshidan kechirdi. Bu davrlarda hashamatli va go'zal binolar vujudga keldi, devoriy rassomlik, amaliy – dekoratni san'at sohasida nafis asarlar yaratildi. Me'morlik va tasviriy san'atda qator yangi an'analarning vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik ansambllari shahar kompozitsiyasida muhim o'rin egallay boshladi va an'anaviy memorlik shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Ayniqsa me'morlikning rangli bezak bilan boyishi katta badiiy – estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rangli bezak O'rta Osiyo an'anaviy me'morligining ham ajralmas qismi bo'lgan. XIV asrga kelib, binoning ichki va tashqi pardozida alohida o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalarda ishlangan rangli naqshlar XIV asr oxirlaridan keng tarqala boshlagan o'yma sirli naqshlarning keng ko'lamda amalda tatbiq etilishi O'rta Sharq xalqlari ijodiy fantaziyasining katta yutug'i bo'ldi. O'rta Osiyo me'morligida ilk bor Ko'hna Urganchdagi To'rabek xonim maqbarasida namoyon bo'ldi. Xorazm Temur farmoyishi bilan Samarqand va saltanatning boshqa yerlarida keng foydalanilgan. Xorazm ustalari keng jalb yetilgan.

XVI asr oxiri va XV asr boshlarida ayniqsa, Samarqandda katta qurilish ishlari olib borilgan, hashamatli va go'zal binolar vujudga kelgan. Shahar qalin devor bilan o'ralib, olti darvoza orqali kirilgan. Shaharda baland qo'rg'on bo'lib, uning saroylari bo'lgan. Bu davrda pishiq g'ishtdan qurilgan va moviy rang koshinlar bilan bezatilgan machit, madrasa va maqbaralar, osmon o'par minoralar qad ko'tardi. XIV –XV asrlarda bunyod etilgan bu yodgorlik O'rta Sharqning baland binolardan bo'lib, uning qurilishiga alohida e'tibor berilgan.

O'rta asr va O'rta Sharq me'morligining haqiqiy durdonasi, bu Temuriylar maqbarasi bo'lib, o'zining tantanavor monumentalligi va dekorativligi bilan ajralib turadi. Bino soda me'morlik hajmlardan - sakkiz qirrali asos, silindirk baraban va qirrali ko'k – moviy gumbazdan tashkil topgan, ichki qismi juda serjilva, devolari marmar Bilan pardoziqlangan, o'yma va rangli naqshlar ham binoning ichki qismiga alohida fayz kiritgan.

Albatta, Temur va temuriylar davri me'morligini «Shohizinda» me'morlik kompleksisiz tasavvur yetib bo'lmaydi. Afsonaviy Afrosiyob yonbag'riga joylashgan bu ansambl XI – XII asrlarda bu yerda qurila boshlagan maqbaralar o'rniga qurilgan bo'lib, bu joy islom diniga qadar ham muqaddas sig'inish joyi bo'lgan. Afsonalarga ko'ra , shu yerda keyinroq musulmonlar avliyosi bo'lgan Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, go'yo u shu yerda tirilib, yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha shu yerda yashashga qaror qilgan emish. «Shohi - zinda» («tirik podsho», «tirik shoh») nomi ham shundan olingan.

Hozirgi «Shohi- zinda » ansambli XIV – XV asrlarning birinchi yarimida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan. 1434 – 1435 yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan.

Shahrisabzdagi «Oq saroy» (1380 y.) Turkistondagi Ahmad Yassaviy me'morlik kompleksi ham O'rta Sharq me'morlarining ajoyib san'atini ko'z – ko'z qiladi.

XVI asr boshlarida Shayboniyxon va uning sulolasi hukumronlik qilgan yillarda san'at va madaniyat qator yangi an'analar bilan boyidi. U davrda

Buxoro davlatning yirik markaziga aylandi. Bu yerda dunyoviy fanlar, muzika, she'riyat, xattotlik va miniatyura rassomligi rivojlandi. Boxoroning qiyofasi beqiyos darajada o'zgardi. Temuriylar davri me'morligining yaxshi an'analari rivojlantirilib, nodir inshootlar qurildi. Peshtoqlari bir –biriga qaratib qurilgan qo'sh madrasalar ko'plab qurildi.

XVII asrda Shayboniylar o'rniga kelgan ashtarxoniylar sulolasi davrida ham Buxoro katta qurilishlar davom etadi. Shunday yodgorliklardan biri Abdulazizxon madrasasi diqqatga sazovordir.

Shu yerda Samarqand Registonida Ulug'bek (XV asr), unga qarama – qarshi tomonda qurilgan Sherdor (XVII asr) va ular o'rtasida joylashgan Tilla qori madrasalari (XVII asr) dan iborat ansamb yaratildi. Bu binolar bevosita an'anaviy me'morlik prinsiplari asosida qurilgan, sirli koshinlar bilan bezatilgan. Sherdor madrasasi peshtoqi esa sherlar tasviri bilan bezatilgan.

XV-XVI asrlarga mansub turar joy xonadonlarning saqlanmaganligi tufayli, turar joy xonadonlarning qanday bezatilganligini kitoblarda saqlangan miniatyuralardan ko'rsa bo'ladi.

XVII asrga kelib devorga chizilgan bezaklar kamayib'ketdi. Faqat ba'zi binolardagina saqlanib qoldi. Masalan, XV-XVI asrlarda qurilgan inshootlarning namunalariga teng keladigan Buxorodagi Abdulazizxon madrasasini (1652y) misol keltirsa bo'ladi. Bu madrasa XVII asr yodgorliklarining eng yorqin namunasi bo'lib, undagi bezak va naqshlar juda mayda qilib bajarilgan bo'lib, zamini ganch suvoqli kundal uslubida bajarilgan. Nozik naqshlar manzara bilan ham -ohang bajarilgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib iqtisodiyotdagi ko'tarilish Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining me'morchilik qurilishlarida ham sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Xivadagi Tosh Hovli saroyi (1830-1832 yillar) avvalgi davrlar ya'ni, Xorazm qurilish an'alarini o'z ichiga olib qurilgani kishini hayratga soladi. Saroylar qal'aga oxshatib qurilgan bo'lib, ajoyib ayvonlari, o'ymakorlikda bajarilgan ustunlar; eshiklar, faqat Xiva

naqqoshlariga xos murakkab islamiy naqsh kompozitsiyalari rang-barang koshinlari bilan bajarilganini ko'rsa bo'ladi.

Buxoro me'morchiligida ham shu davrga kelib ijodiy ko'tarilish sezila boshladi. Ayniqsa, turar joy arxitekturasida rangli ganch suvoqlar va o'ymakorlik ishlari xalq ustalari tomonidan keng qo'llanila boshlanganligini ko'rsa bo'ladi.

Tarixaga nazar solar ekanmiz ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan boy madaniy merosimiz tarixiy me'morchilik obidalarini beboho va rang barangligini guvohi bo'lamiz. Bu tarixiy me'morchilik obidalarini tasvirlash orqali kishi ruhiyati ko'tariladi. Kelajak yoshlarda estetik did shakllanib bobolartimiz yaratib qoldirgan boy madaniy merosdan bahramand bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi.

II. BOB Rang tasvirning o`ziga xoslik talqini va masalasi

2.1§. Tasviriy san`at tur va janrlari

O`zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma`naviy merosi xalq pedagogikasi an`analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo`l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an`analarga ega bo`lgan Tasviriy san`at turlariga o`quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san`at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi. Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san`at sohalarida ham tub o`zgarishlar davri kechmoqda. Bu o`zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo`llay olish ko`nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi. Talabalarni ijtimoiy-madaniy, ma`naviy-ma`rifiy ahamiyatga molik bo`lgan bu tadbirni amalga oshirishga ko`p yillar davomida milliy boylik bo`lib kelgan xalqimizning madaniy va maishiy hayotga keng tatbiq etilgan go`zal xunarlaridan biri tasviriy san`atni o`rganish va u soha bo`yicha bo`lg`usi tasviriy san`at o`qituvchilarini tayyorlash muammosi ham hozirgi kunda juda katta ijtimoiy pedagogik ahamiyatga egadir.

Rang orqali natyurmort ishlash tasviriy san`atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiya, yorug`-soyalarni o`rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi.

Tasviriy faoliyat bilan shug`ullanish kishilarga estetik zavq bag`ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Talabalar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go`zalliklarini chuqur idrok etadilar.

**Tasviriy san`atning tur va janrlari.** Tasviriy san`atning tarbiyaviy ahamiyati.

Tasviriy san`at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo`ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi,

go`zallik hissi ortdi, voqelikdagi go`zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san`at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san`at va san`atkorlar shu davrda paydo bo`ldi. Tasviriy san`at esa o`ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfnings ideologiyasini targ`ib etuvchi kuchli g`oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste`dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go`zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar.

Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag`lubiyatlari ularning asarlarida o`z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo`lgan ana shunday san`at hayot go`zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da`vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo`lib qolmay, balki o`zida inson aql-zakovati, hayot to`g`risidagi fikr-o`ylarini aks ettiruvchi ko`zgu hamdir. Jahon san`ati tarixini o`rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o`tmish odamlarning his-tuyg`u, hayotiy tajribalarini o`rganish g`oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so`zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san`at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san`atning eng muhim turlaridan bo`lib, maxsus



polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriyl san`at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o`rin egallaydi. Rangtasvir asarlari xarakteriga ko`ra monumental, dekorativ, mo``jaz, dastgohli turlarga bo`linadi.

Monumental rangtasvir me`morchilik bilan bog`liq bo`lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo`llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko`rishga mo`ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.



**Mo`jaz** san`at asarlari Turli mamlakatlarda, shu jumladan, O`zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo`lyozmalarga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo`la oladi.


Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo`lib, maxsus matolar, karton, yog`och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo`yoq, guash, suvbo`yoq, tempera bo`yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o`rnatilib ishlanadi.







Grafika – lotincha «grafo» soʻzidan olingan boʻlib, «yozaman», «chizaman» degan maʼnoni anglatadi. Tasviriy sanʼatning bu turiga oddiy va rangli qalamda koʻmir, pastel, sangina, suvboʻyoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va hakoziqlar kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy sanʼat turlaridan biri. U lotincha «skulpo» soʻzidan olinib, qattiq materiallarga «qirgʻish, kesish, oʻyish, taroshlash» orqali ishlov berish maʼnosini anglatadi.



Portret – rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan boʻlib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy sanʼat asarlari bizga musavvir Yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret – portret janrining ko`rinishlaridan biri bo`lib, musavvir o`zining tashqi qiyofasini o`zi tasvirlaydi.




Manzara – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko`rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni

tog`u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo`lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O`. Tansiqboyevning «O`zbekistonda mart», «Jonajon o`lka», «Mening qo`shig`im», N. Kashinaning «Tog`da bahor», Z. Inog`omovning «Arpa o`rimi», «Choyga», R. Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug`bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.


Natyurmort – fransuzcha so`z bo`lib, «jonsiz tabiat» degan ma`noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o`rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo`llanadigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi.

U o'z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro'y berayotganligini ham ko'rsata oladi.



Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko'rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr – «botal» fransuzcha so'z bo'lib, «jang», «urush» ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M. B. Grekov,



G.K. Savitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir.



Animalistik – janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha «anima», «hayvonot olami» degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarning devorlariga kiyik, qo'tos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan, XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishladilar. Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A. Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli do'stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Maishiy janr: tasviriy san'atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o'zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari-Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo'ladi.




Realistik rassomlardan P. Fedotov, V. Perov, V. Maksimov, V. Makovskiy, G.K. Savitskiy, I. Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta

hissa qo'shdilar. O'zbek rassom laridan R. Ahmedov, M. Saidov Z. Inog'omov, R. Choriyev, G'. Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etib keldilar.

Rang tuslarining nomlari va ranglar gammasi xarakteristikasi: Iliq va sovuq ranglar. Rangtasvir mashg'ulotlarida ranglar bilan ishlashda talabalarni ko'pchilik hollarda qiynab qo'yadigan narsa ranglarning o'zbekcha nomlarini yaxshi bilmaslikdir.

Talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini olib borish uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi rangtasvir asoslarini puxta egallash va rangshunoslik nazariyasini mukammal bilishi shart. Shuning bilan birga realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va amaliy mashq qilish natijasida savodli rangda ifoda yo'llarini o'rganish mumkin. Bu hol, ayniqsa, natyurmort ishlashda, uning ranglari to'g'risida so'z yuritganda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ma'lumki bo'yoqlarning 150 dan ortiq ruscha tuslari mavjud.



Ma'lumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlas jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushunamiz. Bu holatni quyidagi jonli misol bilan izohlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlar ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha alohida-alohida, bir-biri bilan

uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi.

Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlar yog'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rang-tasvirlarini ishlash jarayonida ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q- ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir ob'yektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir ob'yektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi.

Rangtasvir asarlarini yaratishda, qalamtasvirning ahamiyati

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar xaqidagi ta'limot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, panolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishiga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan bo'lish kerak.

Ranglarni tabiatda qanday xosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgals rangshunoslik nazariyasida muxim yangilik yaratgan. Ko`p yillik tajribalari asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati-rang toni (nomi), rangning och-to`qligi va to`yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko`rsatgan.

Rang muammolarini o`rganishga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo`lgan Tokio rang institutida inson qalbiga ta`sir etadigan tabiat Hodisasi-rang atroflicha o`rganiladi.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya`ni ularni birinchi qizil, ikkinchisini ko`k, uchinchisini binafsha va hokazo deb atalishiga asos bo`lgan belgisi rang toni deyiladi. Biroq xromatik rangga ozroq kulrang qo`shsak, uning sho`xchangligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to`yinganligi, ya`ni uning tarkibidan sof bo`yoqning kamayganligidan darak beradi.

Demak, rangning to`yinganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini, tozaligini tushunish kerak.

Yuqorida aytilganlardan ma`lum bo`ladiki, xromatik ranglar bir-biridan uchta asosiy xossasi-rang toni (rangning o`zi), rangni och-to`qligi va to`yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektrni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o`xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo`shilsa, ularning oralig`ida qirmizi ranglar hosil bo`ladi. Bu hosil bo`lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o`rtasida joylashtirib spektr tutashtirilsa, xalqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasidan qizil, qizg`ish zarg`aldoq, sariq, sarg`ish yashil, yashiltab zangori havorang, ko`kimtir havorang, ko`k, ko`kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil t uslari ko`rinadi.

Ranglar doirasida rang t uslari juda ko`p bo`lishi mumkin. Lekin ko`zlarimiz ularni 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira bo`ylab joylashish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo`lakka bo`linsa, birinchi yarmida qizil, zarg`aldoq, sarg`ish yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havo rang, feruza, zangori ko`k binafsha ranglar

joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab-qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni , cho`g`ni eslatsa, xavo rang, zangori, yashil ko`klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo`lib, xar qanday iliq ham o`ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo`lib ko`rinishi va aksincha, sovuq rang o`zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin.

Kimyo fani bo`yoqlarning topilishiga, moddalarni kimyoviy usulda qo`shib, bo`yoqlarning reseptlarini aniqlashga yordam beradi. Buyoqlar asosan ikki xil yo`l bilan tayyorlanadi. Buyoqlarning nomlari ko`pincha, qazilmadan qazib olingan joyning nomi bilan ajralib kelinadi.

Masalan, buyoqlardan neopolitan sarig`ini olsak, bu sarg`ish malla rang bo`yoq Italiyaning Neapol shaxri atrofidagi tog`lardan vulqon bilan otilib chiqqan moddadan tayyorlanadi. Xalilovka oxrasi-oltin tusli bo`yoq bo`lib, Uralda Orenburg rayonida Xalilovka qishlog`ida olinadi. Hind sarig`i-to`q sariq bo`yoq, Hindistonning Bengaliya shtatida o`sadigan xurmo daraxti yaprog`idan tayyorlanadi. Yana ayrim yorqin qizil bo`yoqlarni kichkina jonivorlardan-dub daraxtida yashovchi qo`ng`izcha (kattaligi 2-8 mm). Shimoliy Amerikada yashovchi qizil chuvalchangdan tayyorlanadi.

Tasviriy san`atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo`lib, ular bir-biridan ishlanish yo`llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim rol o`ynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har- xil ta`sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni “quvonchli” va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo`lgan “xira” deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o`z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma`lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta`sir etib fikrlar uyg`otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san`atning juda ko`p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u

qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida karash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki, ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan ,qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatdan ikki xil xususiyati: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil ,sariq zarg'aldoq va ularga yashil ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi . Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar . Xromatik ranglar esa bir–biridan rang tusi ya'ni -qizil, sariq , ko'k, yashil, jigar rang va hakoza . Och-to'qligi ya'ni och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar “kontrast”ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini, bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moy bo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, o'quvli tarzda ishlatish usullari texnikasini bilishni taqozo etadi Buyoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash

rangtasvirlashning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratish kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yog'ida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqozo etadi. Arxomatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya'ni biror rang tusiga ega bo'lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektrining barcha ranglari hamda ularning bir birlari bilan aralashtiruvidan hosil bo'lgan xamma ranglar jumlasidandir. Shuningdek, oq rang bilan rang tuslari ham xromatik ranglar jumlasiga kiradi.

Xromatik ranglar **axromatik** ranglardan farqli o'laroq, faqatgina yorug'lik kuchlari bilan emas, balki nomlari, tuslari jihatidan xam ajralib turadi. Masalan, sariq rang qizil rangdan ham yorug'lik kuchi bilan, ham rangining tusi bilan keskin farq qiladi. Har bir xromatik rang uchta xossaga rang tusiga, rang yorug'ligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik ko'zda tutiladi), rang to'yinganligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik ko'zda tutiladi), rang to'yinganligiga (rang quyuvchiligi) ega bo'ladi. Har bir xromatik rang ana shu uchta xossaga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Rang tusi ranglarning to'lqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko'ra biz ko'z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko'ramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo'yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko'pdir. Agar biror rangga tusining to'lqinlar uzunligi o'zgarmaydi. Chunki oq rang qo'shilganda faqatgina rang yorqinligi o'zgaradi va qaytarish koeffisienti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lcham uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang tuslari spektor ranglariga kanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi shunchalik yaxshi bo'ladi.

2.2§. Manzara - tasviriy san`atning alohida janri Manzara kompozitsiyasi



Manzara - fransuzcha «peyzaj» so'zidan olingan bo'lib «tabiat» degan ma'noni anglatadi, tasviriy san`atda esa tabiatning tabiiy yoki hayoliy ko'rinishlarini ifodalovchi janr hisoblanadi. Manzara janrini ikki xili mavjud.

Birinchisi mustaqil turi bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

“Kompozitsiya” so'zi lotincha compositio so'zidan kelib chiqqan bo'lib, qismlarni ma'lum bir tartibda joylashtirish degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san`at asaridagi kompozitsiya kartinada tasvirlangan barcha elementlarning rassom g'oyasiga muvofiq joylashtirilishini bildiradi. Tomoshabin e'tiborini jalb qilish va uni hayajonga solish uchun rassom tasvirlashning kuchli ifoda vositalarini izlab topishga harakat qiladi. O'z maqsadini ifodalashda barcha ortiqcha narsalarni chiqarib tash-laydi, ikkinchi darajali narsalar asosiga bo'ysundiriladi. Mato sirti, o'lchami ko'zlangan maqsad yoki ko'rish nuqtasi, ufq chizig'ini belgilash, rang berish, kompozitsiya markazini belgilash - bularning barchasi kompozitsiyaning elementlari sifatida xizmat qiladi. Manzara asarining mazmuni, tanlangan motivning hayotiy-ligi kartinaning kompozitsion qurilishi bilan yuzaga chiqadi. Manzara motivlarini tanlash, kompozitsion uyg'unlikni topa bilish har bir rassomning o'ziga xos ijodiy did va mayliga bog'liq bo'ladi. Manzara etyudlarini ishlash bilan avvalo kompozitsiyaning dastlabki detallari - oldingi, o'rta va orqa planni tanlashdan boshlanadi. Bunda ko'rish nuqtasini, qog'oz yoki mato o'lchamini belgilab olish muhimdir. Manzara etyudi

kompozitsiyasida osmon, yer va boshqa ko'rinishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni topishga ham e'tibor berish kerak. Tasvirlanayotgan obrazning ta'sirchanligi tanlab olingan naturaning qiziqarli tomoni bilan ham belgilanadi. Shuning uchun rassom naturaning eng ta'sirli jihatlarini topa bilishi, buning uchun naturani har xil holatlarda, kunning turli vaqtlarida diqqat bilan kuzatishi kerak. Zarur ufq chizig'ini belgilash, o'ng va chapdan, yaqin va uzoqdan qarab, shunday bir nuqtai nazarni - ko'rish nuqtasini topish kerakki, toki natura o'zining ifodaviyligi bilan rassom niyatini optimal darajada amalga oshirish uchun xizmat qilsin. Manzara janrining ko'rinishlaridan biri bu interyer hisoblanadi. U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida uchraydi. Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida interyerni tasvirley olganlar. Bu janrda ijod qilib Jotto, A.Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar shuxrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu marina janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi.



Marina janrini shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jaxon tasviriy san'atida munosib o'rinni egalladi. Marina janridagi asarlar boshqa janrdagi

asarlar bilan birgalikda ham ifodalanadi. Masalan, portret, manzara, tarixiy, turmush v.b. Bizni o'rab turgan tabiat cheksiz rang-barang va go'zal. Quyoshning yog'dusi ranglar olamiga beqiyos garmoniya ato etadi. U doimo, uzluksiz qishu-yozda ham, bahor va kuzda ham tabiatning yuzini ochadi.

Qorli to'fonlardan so'ng o'rmondagi qish manzaralari ham mo'jizaviydir. Boshlariga oq telpaklarini kiygan daraxtlar, juda maftunkor, yerlarda va dalalarda oq, kristallsimon marvariddek yaltiraydi.

Bahorda esa, tabiatning ranglari tez va betakror o'zgaradi. Garchi qorlar tugamagan bo'lsada, uning tagidagi dastlabki ilk o'simliklar - boychechaklar bosh ko'taradi.

Yoz keladi. Dalalarda zangor, safsar, binafsha rangli kamalak to'liqini barq uradi.

Kuz esa oltin. Chinakam oltin. Za'faron barglar ichki armonni eslatadi. Va lekin hayot, tabiat go'zallikka boy. U davom etadi.

Zamonaviy manzara, oddiy va lekin mislsiz ko'ngilga yaqin, qadrdon. Kanallar qazilgan, sun'iy dengizlar qurilgan, elektr tarmoqlarini soch kabi cho'zilganligi, neft ustunlari, ulkan yangi qurilishlar va hokazo, ko'plab, ona yurtning qiyofasini ko'rsatuvchi belgilardir.

P.Jalilovning «Abadiy uyquda» kartinasi uning tabiatni chuqur bilishi natijasi o'laroq yaratilgan. Abadiy ulug' va shiddatli bulutlar to'foni, va kichik mozordagi qo'sh daraxt, bularni barchasi tomoshabinga ta'sir qiladi. Hayotning mohiyati haqida chuqur falsafiy o'ylarga olib keladi, tabiatning abadiyligi haqida fikr uyg'otadi. Rassomning tabiatni yaxshi bilishi, tushunishi, keng va bepoyonligidan ta'sirlanishi uning uchun umumlashma obraz yaratishga olib kelgan va o'zining murakkab tug'yonli mulohazalarini ifoda etishga imkon bergan.

Rassom kartina kompozitsiyasi ustida ishlar ekan, unda favqulotda va ortiqcha detallarni olib tashlashga, umumlashgan shakllar orqali umumiy rang gammasini, kayfiyatini, mazmuni va g'oyasini ifoda etishga urinadi.

Manzara alohida janr sifatida O'rta asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan. Xitoy rassomlarning manzaralari juda shoirona bo'lib, ular tomoshabinga cheksiz shavqu- zavq beradi, to'liqlantiradi, olamni abadiyligi haqida tasavvur beradi, to'liqlantiradi. Rassom X.V.Dun Yuanning «Daryo manzarasi» qora tush bilan ipakli matoga ishlangan. Borliqning cheki yo'q, suv yuzi keng, ufq

gorizontda tuman tutunlari orasida g'oyib bo'lgan. Keyinchalik Xitoy rangtasviri ta'sirida Yapon manzaralari ham paydo bo'lgan.

Yevropa san'atida Uyg'onish davriga kelibgina manzaraning mustaqil janr sifatida shakllantirish uchun urinishlarni sezish mumkin. Rassomlar naturani o'rganish bilan kartinalarda kenglik (fazo) ni ko'rishga, chiziqli va havo perspektivasi prinsiplariga asoslanib, tabiat insonlar yashaydigan real vosita muhit-makon sifatida talqin etiladi.

XVII asrda klassitsizm san'atida ideal manzaralar ishlash prinsipi paydo bo'ladi, qaysiki asosiy o'rinda tabiat obrazi mohirona tasvirlanadi va ular o'zida olamning tuzilishi qonuniyatlarini ifoda etadi.

Manzara ustida ijodiy ish olib borish kompozitsion izlanishlar va ko'plab etyudlar yozishni talab qiladi. Etyudni kartinada takror qilish yaramaydi, chunki etyud asar g'oyasiga to'liq mos kelmasligi mumkin. Rassom asta-sekin o'ylangan obzor va manzaraning asosiy detallari shaklini, koloritning holatini topib boradi. Manzara ustida ishlashning rangtasvirni boshqa janrlari bilan umumiy tomonlari ham bor. Xuddi boshqa yerdagidek manzarada ham mavzu tanlash, mazmunni topish, asar o'lchami va formatini aniqlash, qismlarning o'zaro bir-biriga aloqadorligini topish, tasvirning yaxlitligi va birligiga erishish nazarda tutiladi. Kompozitsiyaning ko'rish qonunlari manzara uchun ham ishlatiladi. Biroq, manzara kompozitsiyasi ayrim o'ziga xosliklarga ham egadir.

Manzarani qurishda er va osmonni o'zaro o'lchamli va maqsadga muvofiq joylashtirib olish katta ahamiyatga egadir. Har bir qismning o'lchamlari u yoki bu fikrni plastik tarzda ifodalashda rassomning maqsadiga ko'ra mazkur o'lka uchun xarakterli xususiyatlarini ko'rsatishda zaruriy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yana shuni ham xal etish zarurki, manzaraning asosiy ob'ektlarini tonal va rang munosabatlarini ifodalash va shuningdek, shu ikki asosiy tushuncha ichidagi boshqa katta planlarni nisbatlarini ham hal etib olish zarur bo'ladi.

Manzarada qanday ranglar ishlatilmasin, ular yagona rang gammasidan chiqib ketmasligi kerak. Agarki, manzaraning ranglari umumiy gammaga bo'ysunmay oldinga chiqib ketar bo'lsa, bunda tarkibiy garmoniya buzilgan hisoblanadi. Manzara kompozitsiyasida manzara hosil qiluvchi borliqni muvozanati, turli och va to'q siluetli ob'ektlarni ritmik takrorlanishi ham muhim rol o'ynaydi. Manzarada ob'ektlarni faqat o'nga yoki chapga joylashtirib qo'yishi yaramaydi. Holat yuzasida ularni katta yoki kichik muvozanat bilan joylashtirishga xarakat qilish lozim.

Rang tasvirda manzara janri

1. Manzara chizish jarayonida perspektiva

Manzara ishlash texnikasini egallash bo'lajak rassomdan juda katta qunt va mehnatni talab qiladi. Kuzatuvchidan tabiat manzaralarini katta masofa ajratib turishi, yorug'lik va soya reflekslarining xilma-xilligi va ko'pligi, yorug'-soyalarning tez o'zgaruvchanligi, ob-havo va fasllarning o'zgarishi bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo'lgan rassom mehnatini qiyinlashtiradi. Shuningdek, qiziqarli motivlarni paydo bo'lishiga olib keladi ham.




“Perspektiva” so’zi lotinchada “aniq ko’raman” ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda perspektiva qisqarish hamda narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari o’zgarib borishi ma’nosida ishlatiladi. Perspektiva rassomga manzarani naturada qanday ko’rilsa, kartinada shunga mos tasvirlash imkonini beradi. Perspektiva qoidalarini o’zlashtirish manzara chizish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Manzara ustida ishlash qo’yidagi bosqichlarda olib boriladi:

1. Qalamda eskiz bajarish;
2. Manzaraning g’oyasi va mazmuniga javob beruvchi naturadan qoralama va etyudlar bajarish;

3. Tonal rang eskizlari ustida ishlash;

4. Kompozitsiyaning haqiqiy kattaligida (kartonda) eskiz bajarish.

Manzara asarlarining muvaffaqiyati ularda tasvirlangan predmetlarning o'zaro uyg'un o'lchovlarda aks ettirilishiga ham bog'liq, albatta. Buning uchun bo'lajak rassom naturani diqqat bilan kuzatishi, narsa va buyumlar, jonivorlarning bir-birlariga nisbatan o'lchovlarini, ularning ufq chizig'iga nisbatan joylashishi kabi jihatlarini tasvirlash bilan ularda manzara chizish malakasi shakllanib boradi. Perspektiva ufq chizig'i bilan bog'liq holda belgilanadi. Ufq chizig'i deyilganda osmon bilan erni ajratib turadigan chiziq tushuniladi. Ufq chizig'i rassomlikda kuzatuvchining yoki rasm chizuvchining ko'zi balandligida tasavvur etiladigan epik (gorizontal) suvrat tekisligiga yondosh (parallel) chiziqdir. Ufq chizig'i odatda tasvirlanadigan manzaraning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Ufq chizig'ini qog'oz betiga uch xil: qog'oz betining yuqorisidan, o'rtasidan, pastidan o'tkazish mumkin. Bu, asosan, kuzatuvchi egallab turgan ko'rish nuqtasiga bog'liq bo'ladi. Perspektivaning chiziqli perspektiva, rang perspektivasi va hajm perspektivasi ko'rinishlari mavjud. Chiziqli perspektivaning muhim tomoni shundaki, u narsa va buyumlarning kuzatuvchiga nisbatan o'z shakli va o'lchovlarini o'zgartirib borishini ifodalaydi. Narsalar kuzatuvchidan uzoqlashib borgan sari ularning o'lchovlari kichrayib boradi. Aksincha, kuzatuvchiga yaqin-lashgan sari narsalarning o'lchovlari ham kattaroq ko'rinadi. Perspektiv qisqarishni qog'ozda tasvirlashda quyidagi qoidaga amal qilinadi. Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin turgan manzara qog'oz betining pastki qismida tasvirlanadi va aksincha, kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko'rinadigan narsalar qog'oz betining yuqori qismiga joylashtiriladi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda ham,



yaqinda ham joylashmagan ob`ektlar qog`oz betining o`rtasida tasvirlanadi. Perspektiv qisqarishni qog`ozda aks ettirish ko`rish nuqtasiga nisbatan olinadi. Ko`rish nuqtasidan xayolan chiqarilgan chiziqlar manzaraning yuqorisi va pastki qismidan o`tkaziladi. Manzaradagi boshqa predmetlarning perspektiv qisqarishini belgilashda ko`rish chizig`ini o`zgartirmaslik talab qilinadi. Xuddi shu usulda har qanday narsalarning rasmini perspektiv qisqarish qoidasiga ko`ra ishlash mumkin.

Predmet belgi xususiyatlarining xiralashishi esa uni bizdan uzoqlashtiradi. Oldingi planda joylashgan narsalardagi yorug`-soyalarning keskinligi kuzatiladi. Tuman, chang yoki tutun bilan qoplangan joydagi narsalar ko`rinishi xiralashadi. Uzoqlashgan sari narsalarning rangi havorangga moyillashib boradi, ularning rangidagi farqlar kamayib boradi. Shuningdek, manzara ishlash jarayonida hajmlilik yoki yorug`lik perspektivasini ham e`tiborga olish zarur. Narsalar yorug`lik manбайдan uzoqlashgan sari o`zining yorqinligi, rangi, shakli aniqligini yo`qota boradi. Barcha narsalar bizdan uzoqlashgan sari yoki unga nur yorug`lik tushgan sari shakl va rang aniqlashib, manzaraning xajmli ko`rinishi aniqlashadi. Yorug`lik perspektivasi, ayniqsa, oqshom manzarasi tasvirlangan

kartinalarda alohida ahamiyatga ega bo`ladi. Masalan, Reyn Van Gok "Oqshom" kartinasida manzaralarning barchasi quyoshning kechki nurlariga chulg`angan holda, ko`kish rangda tasvirlangan va shakldagi aniqlik real rang yo`qolib borgan. Shu bois talabalar mustaqil ishlar bajarish jarayonida perespektiva qoidalariga amal qilish bilan birga tasviriy san`at asarlarini kuzatishi hamda o`zi chizgan suratlarni tahlil qilib borishi yaxshi samara beradi.



Manzara chizish jarayonida ko'pincha va ayniqsa boshlovchi rassomlarga predmetning rangi haqida ilgari shakllanib qolgan tasavvurlar halaqit berishi mumkin. Masalan, maysa-larning rangi kuzatuvchidan uzoqlashishi, shunga muvofiq ravishda muhitning o'zgarishiga o'zgarishini hisobga olmasdan birdek yashil rangda tasvirlayveradilar. Manzara chizishdagi muhim jihatlardan yana biri kartinada ob-havoni, faslni, kunning turli vaqtlardagi holatlarini tasvirlay olishdir. Bu narsa kartinada umumiy tus va rang kayfiyatini bera olish deyiladi. Tabiatning tez o'zgaruvchan holatlari erta tong, peshin, kech, nam havo, quruq havo, bulutli kun, quyoshli kun va boshqalar o'ziga xos rang gammasini talab qiladi. Kunning turli vaqtlarida va turlicha ob-havo sharoitida ishlangan etyudlar bunday paylarda tabiatning yoritilish holatidagi o'zgarishlarga muvofiq tarzda o'zining umumiy tusi va rangiga ko'ra farqlanadi. Tabiatning turlicha yoritilganlik holatlaridagi farqlarni o'rganish uchun bitta naturaning o'zini bulutli tunda ob-havoda, quyoshli kunda, yozda va qishdagi ko'rinishlarini kuzatish, tasvirlash foydalidir. Manzarada umumiy tus va rangdagi uyg'unlik, yaxlitlik yo'qligi bir necha xil rang-tus holatlarini yuzaga keltiradi. Bunday asar tabiat go'zalligini ifodalay olmaganidek tomoshabin tuyg'ulariga ham ta'sir eta olmaydi.



Manzara etyudining muhim afzalligi - tabiatning malum holatini, yoritilganligining havotiy muhit tasirini, manoli makonni etkazishdir. Manzara tasvirining bunday sifatlariga rassom havo perspektivasi qonuniyatlariga amal qilish, rang munosabatlari bilan ishlash usuli, umumiy tus va rang holatini to'g'ri topish yordamida erishadi. Manzara ko'rinishlari va narsalarni rang och-to'qligi va to'yinganligi bo'yicha taqqoslash, solishtirish, ularning naturadagi farqlarini belgilash - bular etyudning rangli munosabatlarini to'g'ri ifodalashda asos qilib olinadi.

Manzara etyudida yechiladigan muhim vazifa- turli ob-havoda, kunning istagan vaqtini, yoritilgan holatini tasvirlashdir. Xohlagan etudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlariga mos bo'lmasligi kerak. Etyudning rang farqlari albatta naturaning yoritilgan holatini hisobga olib qurilishi zarur.



Manzarada kenglik.

Qosh qorayganda hamma narsalar to'qlashadi, qizil, zarg'aldoq va sariq ranglar to'yinganligi jihatidan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday holatlarni hisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob-havo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jihatdan bir-biridan farq qilishi lozim.

III. BOB. Samarqand tarixiy obidalarni tasvirlashda ijodiy jarayon mohiyati va bosqichlari.

3.1§. Samarqand manzara kompazitsiyasida ijod qilgan rassomlar.



Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jaxonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rnini bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak.

Manzara chizish jarayonida rang xususiyatlaridan foydalanish Rangtasvirning eng asosiy ifoda vositasi - bu rang. Ranglar rangtasvir asariga tasviriy san'atning boshqa turlariga qiyoslaganda alohida hayotiylik bag'ishlaydi, tasvirning to'laligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Rassomning g'oyaviy maqsadi hamda tasvir jarayonidagi kayfiyatiga muvofiq ravishda manza-rada ranglar yorqinlashishi, nur va havo etakchilik qilishi, bu orqali tasvir jarayonida rassom ruhiy holatidagi ko'tarinkilik, hayotsevarlik va kelajakka ishonch tuyg'ulariga ishora qilinishi mumkin. Yoki aksincha, sovuq ranglar orqali tushkun kayfiyat, bezovtalik kabilar ifodalangan bo'ladi. Rangning asosiy xususiyatlari uning yorqinligi (och-to'qligi) tusi va to'yinganligi bilan belgilanadi. Rang borasida gap ketganda bir narsani unutmaslik kerak – soyalar ham rangli bo'ladi. Bunda rassom bir rangning nur va soya hisobiga tuslanishini ko'ra olishi va shunga muvofiq aks ettira bilishi kerak bo'ladi (valyor rangtasviri). Shuningdek, manzarada reflekslardan foydalanish – tasvirlanayotgan predmetning boshqa buyumlarning yorug'ligi yoki rangi ta'sirida o'zgarishini to'g'ri belgilash va aks ettirish ham muhimdir. Bu esa manzaraning rangdorligini ta'minlaydi Manzara rangtasvirida har bir rang surtmasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Manzarani professional darajada mahorat bilan ishlash undagi ranglar munosabatini real holatini naturada

ko'rilganidek tasvirlay olish bilan belgilanadi. Manzara ishlash jarayonida ranglarning o'zaro munosabatini his qilish va aks ettirish malakasini hosil qilish uchun manzara ko'rinishlarining yorug'-soya ta'siridagi o'zgarishlarini zaruriy plandagi ko'rinishlarda kuzatish, o'zaro qiyoslash yaxshi samara beradi.

Xususan bu borada bunday professional darajada ijod qiladigan o'zbek rassomlarining aksariyati, ijodining birinchi chiziqlarini Samarqand etyudlarida boshlagan. Samarqandning o'ziga xos go'zal tarannum etib turgan ohangraboga o'xshagan bir kuyi bor. Bu kuy jamiyki san'at ahlini o'ziga jalb etgan. Samarqand go'yoki ummondek, uning firuza osmoni yerga akslangan. Ko'hna nafis koshinlar bir so'z bilan moviy rangning minglab tuslar jilosi deyish mumkin. Tabiiyki bunday jilo har qanday mo'yqalam sohibi aqlini shoshirib qo'yadi. Bunday rassomlardan biz minglabini sanashimiz mumkin. Biroq biz dengizdan marvarid tergan kabi eng nafisi va san'at darajadagilarni sanab o'tmoqchimiz:

Richard Karl Karlovich Zommer - 1866-1939 yillarda yashab ijod qilgan rus rassomi hisoblanadi. Rassom akvarelest, "Tiflis tasviriy san'at jamiyati" asoschilardan biri. R.K.K. Zommer 1884 yildan boshlab imperator san'at akademiyasida ko'ngilli bo'lgan. Treming davomida, U bir qator yirik rag'batlantiruvchi medallar bilan taqdirlangan. 1893 yilga kelib rassom o'qishni 3- darajali sinf unvoni bilan tugatdi. Shu davrda bunday unvonni olish, katta mahoratni talab etardi. 1890 yillarning oxiri, 1900 yillarning boshlariga qadar Zommer Markaziy Osiyoda juda ko'p ishlar olib bordi.



U o'z asarlarida kundalik va jangovar manzaralarni, shuningdek Turkiston me'moriy yodgorliklarining turlari va Toshkent, Buxoro, Samarqandning qadimgi ko'rinishlarini aks ettirdi. Zommerning 1918 yilda yaratgan "Iltijo" kartinasiga ahamiyat beradigan bo'lsak, mazkur kompozitsiyada, Samarqand ko'hna ko'chalarida kezib yurgan darvesh bechoralar aks ettirilgan. Ranglar koloriti to'liq gammasi namoyon bo'lgan. Manzara perspektivasi qonun-qoidalariga yodgorlik majmui mos kelgan. Perspektiv qisqarish usulida narsalarning o'lchovlarini haqiqatga yaqin va to'g'ri aks ettirish mumkin bo'ladi. Manzarani chizish jarayonida yorug' soyalar va ranglar munosabatini kuzatish bilan bir qatorda, har bir ko'rinishning xususiyatlarini idrok etish bilan chegaralanib qolmay, naturani yaxlit holda ko'ra olish malakasi shakllantirilgan. Kompozitsiyada aks ettirilgan insonlar orqali ularning kundalik hayotdagi mavqei belgilab berilgan. Rassom ularning ust-boshlarini, hatti-harakatlarini, yechimini shunchalik mohirona tasvirlaganki, bunday asarga rassom ko'zi bilan qaramagan inson ham, asarga nom qo'ya oladi. 1890 yillarning oxiri, 1900 yillarning boshlariga qadar Zommer Markaziy Osiyoda juda ko'p ishlar olib bordi. 1912-1917 yillarda u Zaqafqaziyada ishladi: Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon shular qatoridandir. U ko'plab rasmlarning, shuningdek asosan janr-etnografik xususiyatga ega asarlarning muallifidir.



Kompozitsiyalarda asosan o'tror aholi, uning turmush tarzi, urf-odatlar aks ettirilgan. Bir qaraganda kompozitsiya manzarasidan, mazkur aholi qanday hududda joylashganini, yoki qaysi hududdan o'tishayotganini ko'rsak, yana bir qarashda, ularning ijtimoiy mavqei va ayni paytdagi turmush aholi, qanday ekanligini bilish qiyin emas edi. 1894 yildan beri, Zommerning asarlari "Sankpeterburg rassomlar uyushmasi"ning ko'rgazmalarida, keyin esa yirik o'tkaziladigan "Rossiya suvsozlari jamiyati"ning kuzgi ko'rgazmalarida namoyish etildi. 1915 yilga kelib, Toshkentda Zommer asarlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Zommerning "Karvon saroy" kartinasi insonning istagini, g'oyasini ifodalashga qaratilgan. Kompozitsiyaning mukammalligi asosiy manzara ko'rinishlarining, ikkinchi darajalilaridan farqlay olishda ko'rinadi. Har bir detal o'z o'rnini va mazmunini vazifasiga ega. Kompozitsiyada ikkinchi darajali, uncha muhim bo'lmagan narsalar darhol ko'zga tashlanmasligi, asosiy



ko'rinishga alohida urg'u berilganligi yaqqol namoyon bo'lgan. Asosiy manzara kartinada alohida diqqat va e'tibor ifodalagan.

O'rol Tansiqboyev - 1904 – 1972 yillarda yashab ijod etgan O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboyev mashhur manzarachi rassomlardandir. O'zbekistonning takrorlanmas go'zalligiga bag'ishlangan

asarlari nihoyatda rang-barang bo'lib, chet ellarda ham ma'lum. O'.Tansiqboyevning "Jonajon o'lka", "Tog` oqshomi" manzarasi, "Kattaqo'rg'on suv ombori", "Issiqko'l oqshomi", "Tog'larda", "Mening qo'shig'im" kabi ko'plab mashhur asarlari mavjuddir. Rassomga shuhrat keltirgan asarlardan biri **"Samarqand tongi ko'rinishi"** deb ataladi. Bu asarda u yuqoridan turib lirik kayfiyatda tasvirlangan bo'lib, undagi qurilishlar tabiat bilan uyg'unlashib ketgan. Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag'ishlovchi mo'jizakor manzaraning sexrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo'y cho'zgan musaffo rangdagi gumbaz qa'riga ko'milgan shodlik va nafasatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan his etadi. Bu suvratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki gumbaz, osmon va kengliklarning bepoyonligi koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o'ziga tortadi. O'.Tansiqboyev 1958 yilda Bryusseldagi xalqaro ko'rgazmada shu asari bilan qatnashib, xalqaro kumush medal bilan taqdirlangan. Ranglarning yorqinligi kishida xush kayfiyat uyg'otadi. O'.Tansiqboyevning uy-muzeyi Toshkent shahrida joylashgan.



Ўрол Тансиқбоев "Иссиқ-қўл манзараси, 1951 йил


Rahim Ahmedov - O'zbekiston xalq rassomi Rahim Ahmedov ijodiy faoliyatida o'spirinligidanoq atrofida qilargaga xurmatda, do'stona munosabatda bo'lgan. Katta bo'lib san'at yo'lini tanladi. U san'at to'garaklariga qatnashib rassom Xikmat Raxmanov ustozligida rassomlik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. 1937 yili Toshkentdagi Benkov nomidagi Respublika rassomchilik bilim yurtiga o'qishga kirdi. Bilim yurtida B. Hamdami, P. Benkov N.T. Karaxan kabi ustozlar qo'lida tahsil oldi. Raxim Axmedov oldin o'tgan hozirgi zamon rassom asarlarini ko'rarkan men ularga tahlid qilmasdan, o'zimni tasavvurimda hayotni qanday ko'rsam, shundayligicha qog'ozga tushuraman derdi. Karaxan, Benkovlarda tahsil olib yurganida Raxim Axmedovda ham

tabiatga bo'lgan munosabati uni sevish, matoga tushirish qiziqishi ortib bordi. Karaxan aytganidek har doim bir so'zida takror aytar ekan etyud ishlanmasdan turib rang-tasvir yaratib bo'lmaydi derdi.

Manzara sirlarini Karaxan Bankovlardan o'rgana boshladi. 1947 yillarda Leningraddagi I.E.Repin nomidagi rassomchilik, haykaltaroshlik va arxitektura institutiga o'qishga kirib o'qidi.

Institutni tugatgach rassomlik faoliyatini boshladi. U ijod qilib Toshkentdagi rassomchilik san'at institutida ko'pgina shogirdlar tayyorladi. Hozir ular respublikamizni turli viloyatlarida ijod qilib kelishmoqda. Hozirda Raxim Axmedovni ko'pgina asarlari xorijiy mamlakat muzeylarida saqlanmoqda.

Bunga bir qancha yaratgan manzarali asarlari misol bo'la oladi. “Tog` vodiysi” 1970 yil, **“Oq toshda qish”** 1975 yil, “Qish” 1975 yil, “Quyoshli kuz” 1976 yil, “Venetsiya” shahri ko'rinishi, **“Samarqand ranglari”** 1970 yil kabi asarlardir. R.Ahmedov chet el safarlarida ham bir necha turkum asarlar yaratib kelgan. U ishlagan manzara asarlari o'zining yorqin ranglari bilan yodda qoladi. Uning kartinalarida manzaraning tabiiyligi, ranglarning uyg'unligi saqlanadi.



• *Quyoshli kuz 1976 yil.*

Alisher Mirzayev - O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzayev Toshkentda tug'ilgan. Uning manzaraga oid asarlari chet ellarda ham namoyish qilib kelinmoqda. A. Mirzayevning ijod namunalaridan “Anor daraxti”, “Tog` daryosi sohilida”, “Shahar manzarasi”,



• *Anor daraxti. 1978 yil.*

“Boloxonada” qishloq manzarasi ko’rinishlari kabi asarlardir. Uning **“Yangi va eski Samarqand”** turkumidagi asarlarida qadim va navqiron shaharning ko’rinishi aks etgan. Unda Samarqandning ko’hna Eski shahar bilan zamonaviy binolar aralashib ketgan qismi - Urgut bozori ko’rinishi tasvirlangan. Rassom shaharning tinimsiz harakatdagi hayotidan bir lahzalik holatni kartinaga muhrlab qo’ygan. A.Mirzayevning bu asari ekspressiv-ramziy tarzda yaratilgan kartinalardan hisoblanadi.

Ne`mat Qo`ziboyev - O`zbekiston xalq rassomi Ne`mat Qo`ziboyev ham Toshkentda tug`ilgan. Uning ko`plab manzara janridagi asarlaridan “Tog` manzarasi”, **“Bibixonim”** ko’rinishi kabi manzara asarlarini sanab o’tish mumkin. “Tog` manzarasi” asarida tog` manzarasi format usulida tasvirlangan bo’lib, yashil rangda berilgan. Unda tog`da o’sadigan daraxtlarning turlicha ko’rinishini, baland cho’qqilar sari suzib yurgan bulutlarni kuzatishimiz mumkin. Ne`mat Qo`ziboyevning yana bir manzaraga oid asarida Bibixonim ansambli ko’rinishi tasvirlagan. Bu asarida rassom Samarqanddagi Bibixonim masjidini vayrona holatda tasvirlar ekan, uning uzoq yillar davomida xaroba holida bo’lsa-da, mahobatli ekanligini ko’rsata olgan. Rassomning bu asarida syujetli-tematik kartina janri belgilarini ham ko’rishimiz mumkin. Tarixiy hodisalar, yillar, asrlar Bibixonim masjidi oldidan go’yo qatorlashib o’tib boraveradi, biroq Bibixonim masjidi o’z mahobati va ulug`vorligini yo’qotmay, olis o’tmishning tilsiz guvohi bo’lib turaveradi. Kartinada binoning mahobatli – monumental xarakterda tasvirlanishi rassom tanlagan mavzu va g’oyani ifodalash maqsadiga ham muvofiq kelgan.

Rassomlar manzara asarlarida tabiatni o’z borligicha real holatini tasvirlash bilan birga unda alohida e’tiborga molik, xarakterli ko’rinishlarni tanlab oladilar, e’tiborimizdagidek tuyulgan narsalarni ikkinchi darajada, asosiylarni esa



bo'rttirib tasvirlab, badiiylik hosil qiladilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan va aks ettiradigan emas, balki unga asoslanib, nimalarnidir o'zi o'ylab ham topadi, tasavvur etadi, to'qiydi. Demak, manzara asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmay, ayni paytda ular rassomning g'oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Manzara asarlari insonlar ruhiyatiga ta'sir etib ularning ma'naviy olamini, bilimini boyitadi va rassomlarning esa ijodiy tajribasini kengaytiradi. Tasviriyy san'at o'qituvchisidan, albatta tasviriyy san'atning barcha tur va janrlari bilan tanish bo'lmog'i, amaliy ishlay olmog'i talab etiladi. Biz ushbu uslubiy qo'llanmada manzara janri va uning ustalari haqida imkonimiz darajasida eng qisqa yo'sinda ma'lumotlar berdik, xolos. Shuningdek, manzara chizishning nazariy asoslari va amaliy tavsiyalarimizda rassom-pedagog uchun o'qituvchilik faoliyatida o'z ustida ishlaganda, ijodiy ish olib borganda foydalanadi, degan umiddamiz. Maxsus sirtqi ta'lim talabalari va tasviriyy san'at o'qituvchilari ham keng foydalanadilar.



Pavel Petrovich Benkov — mashhur sovet o'zbek rassomi. O'zbek SSRda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Samarqand rassomchilik bilim yurti o'qituvchisi. Pavel Petrovich Benkov 1879 yil dekabr (yangi uslub bo'yicha 20 dekabr) Qozonda tug'ilgan. Peterburg rassomchilik akademiyasini tamomlagan, 1901 yildan 1906 yilgacha D. N. Kardovskiy sinfida o'qigan. Ta'limni Parijda, 1906 yil Jyulian akademiyasida davom ettirgan.



1909 yildan 1929 yilgacha P. P. Benkov Qozondagi rassomchilik bilim yurtlarida tasviriyy san'atdan dars beradi. 1922 yil "Inqilobiy Rossiya rassomlar uyushmasi" tarkibiga qo'shiladi. 1930 yil P. P. Benkov Samarqandga qaytadi va Samarqand rassomchilik bilim yurtida tasviriyy san'atdan dars bera boshlaydi. U yerda bir qator o'zbek rassomlariga kasb sirlarini o'rgatadi, xususan, Abdulhaq Abdullayev, Yusuf Yelizarovlar.

1930 yildan Benkov respublika va butun ittifoq miqyosidagi barcha ko'rgazmalarda qatnashadi.

1932 yildan P. P. Benkov ilk bor manzaraviy etyudlar-u, janr kartinalaridan mavzuviy kompozitsiyalarga o'tadi.



Asarlarining mavzusi keng va dolzarb. “Xudjum shoyi ishlab chiqarish fabrikasi” (1932) va “Registonda sakkizinchi mart” (1933) kartinalari ayollarning ozodligi uchun kurashish va ularning jamoat qurilishiga jalb qilishni o'zida aks ettiradi. “Ravatstroy” (1934) kartinasida sug'orish ishlari qurilishi ko'rsatilgan, “Tabarruk hosil” (1935), “Paxta dalasi terimidagi qiz” kabilarda kolxozchilarning kundalik hayotini ko'rish mumkin. 30-yillarning o'rtalaridan Pavel Benkov respublika va butun ittifoq miqyosidagi barcha ko'rgazmalarda ishtirok etadi.

U uchun yangi bo'lgan hayotni yaxshiroq tushunish va barcha qiziqarli ajoyibotlarni ko'rish uchun Pavel Benkov respublika bo'ylab ko'p sayohat qiladi, qadimiy shaharlar harobalarini va kichik qishloqlarni ziyorat qiladi. O'z ishlarini tabiat qo'ynida chizishga harakat qiladi. Uning o'sha davrlarda qizilgan yirik ko'pshaklli kompozitsiya va portretlari yorug'lik bilan sug'orilgan. Ariq oqib o'tgan, gullar barq gullagan kichik sersoya hovlilarni u alohida ishtiyoq bilan qog'ozga solgan. Bizning davrimizda uning o'sha ishlari g'oyat yuqori shuhrat qozongan (“Buxoro ko'chalari”, 1929; **“Samarqandning eski ko'chasi”**, 1930-yillar, xususiy termasi, Moskva; “Eski hovli”, 1930-yillar; “Bibi-Xonim masjidining hovlisida. Bahor”, “Ariqli hovli. Kuz”, “Dugonalar. Eski hovli”, “Ariq bo'yida”).

P. Benkovning ijodi xilma-xilligi bilan farqlanadi, - bular manzara, portret va mukammal janrli kompozitsiyalar va hamma yerda muallif yuqori cho‘qqida qoladi: “Tojik portreti” (1928), “Buxoroning karvon saroyi” (1928), “Buxoro bozori” (1929), “Yahudiy bo‘yoqchining portreti” (1930), “Xivalik qiz” (1931), “Choyxona. Buxoro” (1932), “Kolxozchi zarbchining portreti” (1940), “Buxorolik amador” (1930-1940 yillar), “Dutor ushlagan chol” (1930-1940 yillar), “Frontdan maktublar” (1945), “O‘zbekiston diyori haqida doston”.

Pavel Benkov o‘zini o‘tkir xarakterli psixologik portretlar ustasi sifatida ham tavsiya qilgan: **“Piyola ushlagan tojik - Samarqand”** (1928), “Buxorolik amaldor” (1928), “Barcha o‘zbeklarning yetakchisi Yo‘. Ohunboboyevning portreti” (1930), “Buxorolik mansabdor” (1930-yillar), “Artist Alyabevning portreti”, “San’atshunos Kannskiyning portreti”.

Urushning oxirgi yillar Pavel Benkovning sog‘lig‘i yomonlashadi, lekin u ko‘p ishlashda davom etadi, vaqtini samarali o‘tkazishga harakat qiladi. 1943-1948 yillar oralig‘ida u polotnolar majmuini yaratib, unda Samarqand manzarasi va shaharning kundalik hayotini tasvirlaydi (**“Shohi Zindadagi rassom** 1943, “Dutor ushlagan qiz” 1947, “Kichik hovli. Bozordan qaytish”, 1947; **“Kuzgi Samarqand”**). Hatto ijodining kechki davrlarida ham rassom yuqori mahorat ila ijod qiladi, uning “Kuzgi hovli. Samarqand” (1947) asari nozik lirika va ma’yus kayfiyat bilan to‘yingan.

1949 yilning boshida P. P. Benkovning nomzodi SSSR Rassomchilik akademiyasi haqiqiy a’zoliciga qo‘yiladi. P. P. Benkovning pedagoglik faoliyati O‘zbekiston tasviriy san’at maktabining yuqori darajada shakllanishiga sezilarli zamin bo‘ldi. Uning o‘quchilari orasida nomi respublikada dong‘i ketgan Qozondan Samarqandga ko‘chib o‘tgan S. Kovalevskaya, L. Abdullayev, A. Abdullayev, R. Ahmedov, Yu. Yelizarov, A. Roziqov, R. Timurov, A. Haydarov va boshqalarni aytish mumkin. P. P. Benkov 1949 yil 16 yanvar kuni Samarqandda vafot etgan.

Shu yilning o'zida rassom yashagan Samarqand ko'chalaridan biriga uning nomi berilgan, Samarqand rassomchilik bilim yurti P. P. Benkov nomi bilan atalgan. Benkov asarlari Moskva, Qozon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus va boshqa shaharlar, shuningdek, Rossiya va O'zbekistonning xususiy kolleksiyalarida hamda bir qator Ovrupa mamlakatlarida saqalanib keladi.

3.2§. Me'moriy obidalar aks ettirilgan kompazitsiyani bajarishda manzarani kuzatish va o'rganish.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus mamlakatiga qaram bo'lgan O'rta Osiyoning yelkasiga og'ir musibatlar tushdi. XX asrning oxiriga kelib Respublikamiz mustaqillikka erishdi. Asrlar davomida yurak qo'rida yotgan orzu-istaklar Respublika birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan yuzaga chiqarildi. Ming yillik o'z tarixiga ega bo'lgan o'zbek xalqi Respublika birinchi prezidenti I.Karimovning sa'y-harakatlari tufayli tez orada xalq xo'jaligining barcha sohalarida shiddat bilan ulkan yutuqlarni qo'lga kiritish boshladi. Mamlakatimizda fan, texnika, san'at, shuningdek, bir necha davlat ahamiyatiga molik bo'lgan sohalar ulkan o'zgarishlar bilan jahonning minbarlarida tan olinib boshlandi. Ayniqsa, adabiyot, musiqa, me'morchilik shuningdek tasviriy san'at sohasida ko'zga tashlanadigan yangiliklari o'zining muhimligi bilan jahon ahlini lol qoldirdi. **Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva** va qator boshqa shaharlarda o'zgacha husn va libos kiygan inshootlarni qad ko'tarishga zamin yaratildi.

Toshkent - Markaziy Osiyoning eng yirik qadimiy shaharlaridan biri - O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir. O'rta Osiyoning yirik sanoat-transport chorraxasi va madaniyat markazlaridan biri. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan tog'lari etaklarida, 440–480 m tepalikda, Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan.

Samarqand - Samarqand viloyatidagi shahar. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi (1938 yildan). 1925-30 yillarda Respublika

poytaxti. O'zbekistonning jan.g'arbida, Zarafshon vodiysining o'rta qismida (Darg'om va Siyob kanallari orasida) joylashgan.

Tarixiy obidalar ta'mirlanib, yangi tipdagi zamonaviy inshootlar bunyod qilindi. Chet el sayyohlarining to'xtovsiz qatnovi, mehmonlarning hayratlanishi, yigirma yil ichida yuz bergan tarixiy dalillardan guvohlik beradi. Bu borada tasviriy san'atda ham ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuzaga keldi. Rangtasvirda ko'p sonli o'zbek musavvirlar yetishib chiqib, nafaqat yurtimizda balki chet elda Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston va qator mamlakatlarda badiiy ko'rgazmalarda qatnashib anchagina muvaffaqiyatlarga erishganliklarini qayd qilish mumkin.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda geografik joylashuviga ko'ra siyosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bu regionda eng qadimiy taraqqiyot markazlari joylashgan bo'lib, dunyo tan olgan yirik shaxarlar Samarkand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaxarlar orqali Sharq va G'arbni o'zining madaniy salohiyati bilan bog'liq tarzda Xitoydan Ispaniyagacha, Yevropadan Hind okeanigacha barcha jabhalarda ko'prik vazifasini o'tagan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezideni I.A. Karimovning OON Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqidan: Samarqandning ertaklarida aytilgani kabi ko'hna va qadimiyligini butun dunyo tan olganligi sir emas. Nafaqat shahar balki xalqi ham qo'li ochik, mexmondo'st ekanligi o'rta asrlardanoq butun dunyoga ovoza bo'lgan. Qadimiy shahrimiz Respublikamiz mustaqillikka erishgach, viloyatlarimizning eng ko'rkam va chiroyli shaharlaridan biriga aylandi.

Samarqand shahrining o'tmishi o'ta muhim va rango-rang tasodiflarga boy. Ikki ming besh yuz yildan ortiq davr ichida bu shahar nimalarni boshidan kechirmadi, gohida u yuksalib, gohida esa bosqinchilar olovida yonib kul bo'ldi. Tarixiy dalillar, Aleksandr Makedonskiy qo'shini, Muslim ibn Kutayba boshchiligida arab lashkarlari, Chingizxon qo'shinlari jonajon shahrimiz kulini ko'kka sovurgan edilar.

Yillar o'tib, asrlar davomida Samarqand shahri qiyofasi o'zgacha chiroyga ega bo'la bordi. Mahalliy xalq o'zining milliy madaniyatini, qadriyatlarini saqlab qolishga intildi va bu yutuqlarni qo'lga kirita oldi. Ayniqsa, Respublikamiz mustaqillikka erishgach, shaharning iqtisodiy salmoq doirasi kengayib, o'zining asl qiyofasini tiklab, ma'naviy tanglikdan chiqib oldi. Samarqand tarixini o'rganish va uning ko'p ming yillik an'anaviy qadriyatlarini tiklash va saqlab qolish muammosi 1997 yilda o'zining ijobiy ko'rsatkichlarini yuzaga chiqardi va Yunesko qaroriga ko'ra Samarqandning 2500 yilligi yubileyi tantanali ravishda nishonlanib xalqaro «Samarqand-2500» fondi tashkil etildi. Eng muhimi Samarqandda nimalarni asrab avaylash degan muammo o'z echimini topdi. Chunki shahar o'zining madaniy me'roslariga ega bo'lib, Respublikaning markaziy shaharlaridan biriga aylandi. Chunki o'z taraqqiyoti jarayonida o'ta nodir me'moriy majmualarni in'om etadi. Bibixonim, Shohi-Zinda maqbarasi shuningdek, o'nlab me'moriy inshootlar shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turganligi fikrimiz dalilidir.

Manzarani munosabatlar metodi bilan tasvirlash jarayonida yosh rassom tabiatning xaqiqiy bo'yoqlarini tushunishga ularning asl rangini umumiy tusi bilan mosligini ko'rishda birdaniga erishmaydi. Tabiatdagi bo'yoqlarni noto'g'ri taxlil etish natijasida rassom rang va tus munosabatlarini adashtirib etyudni jozibali chiqishiga erisha olmaydi. Ayniqsa tajribasiz rassom eritilishining umumiy rangi ta'sirida o'zgargan ranglarni yaxshi sezmaydi.

Ertalabki quyosh barcha narsalarga va manzara obyektlariga pushti – sariq nozik rangni, kunduzgi quyosh esa – oltinsimon, kechqurungisi – to'q sariq yoki qizil rangni baxsh etadi. Tungi oy yorug'ligi narsalar rangini ko'kimtir yashil tomonga o'zgartiradi. Elektr chirog'ida narsalar och – to'q sariqni, sham esa – to'q sariq bo'yoqni hadya etadi. Demak, yoritilishning manbai ta'sirida bo'ladi.

Yoppasiga bulutlar quyuni bilan qoplanib yorug'ligi tarqatilgan osmonga narsaning shaxsiy rangi – ko'proq namoyon bo'ladi. Bulutli kunning yengil

tekis yorug'ligi narsalarning shaxsiy ranglaridagi xarakter va xususiyatlarini aniqlashga imkon tugdiradi.

Manzaraning turli yoritilganlik holatdagi etyudlarni bajarish uchun bulutsiz quyoshli kun, bulutli osmondagi quyosh yorug'ligi, kunbotar vaqt, bulutli kun, qosh – qoraygan paytlarni tanlash mumkin.

Mazmun jixatdan ancha murakkab va uzoq davomli manzara etyudlarini ishlashga o'tishdan oldin, naturaning umumiy ranglar munosabatini tasvirlashga bizga vaqti etyudlarni bajarish bilan, masalan, arralangan daraxt tanasining bir bo'ladi eki bir necha toshlar, osmondagi bulutlar to'plami kabilarni ishlash zarur.

Ranglar dog'i o'z o'zidan narsa yoki obyektning aniq shakllarisiz kerakli tasvirdan boshqa hech narsani ifodalamaydi.

“Tabiatni to'laqonli tasvirlash va uning go'zalligini ko'rsatish uchun – deydi G. Russo – daraxtlar yerda mustahkam tuzishi, ularning shoxlari esa oldinga intilishi qolgan qismi polotno ichida kirib ketgandek tuyulishi, xuddi tomoshabin daraxtni atrofida aylanib o'ta oladiganday tasavvur qilishi kerak. Xar bir bo'yoq surtmasi shunchaki yuzaki qo'yilmasdan, xar bir surtma yaxlit bo'lishi va biron – bir narsani aniq ifodalashi kerak”.

Etyudda aniq obyektlarni tasvirlash ichki naturadagi manzara va muxit detallaridagi asosiy rang munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa obyekt shakli, uning xajmi va hokazo astoydil ishlab chiqiladi. Bularning xammasi yoritilishi umumiy kolorit holatini to'gri xisobga olib rang bilan hal qilinadi.

Manzarani tasvirlashda tabiatni sinchiklab o'rganishni talab qiladi. har bir daraxt alohida o'zining xarakterli tuzilishiga ega.

Tabiatni turli holatlarida, ko'katlar bilan butalar xam har – xil daraxt turlarini xarakterli xususiyatlarini rang bilan tasvirlashni o'rganish uchun naturadan juda qo'p etyudlar bajarish kerak. Manzaraning obyektlarini bo'yoqlar orqali tasvirlash bilan barobarida qalam bilan ularning murakkab shaklini chizish xam zarur.

Manzarani alohida obyektlarini va mayda bo'lak ishlanmalarida qaratilgan mashqlarni bajarish bilan bir qatorda ochiq havoda natyurmortlar bajarishga yaxshi bo'ladi.

Yashil yaproqlar va ko'k osmon – bu ikki rang natyurmortning barcha ranglarni belgilaydi. Bunday natyurmortga misol tariqasida A.A. Plastovning “Yoz” kartinasini ko'rish mumkin.

Bulutli ob–havoda koloritni xarakterli holatini A.A. Plastovning “O'rim” kartinasining natyurmort qismida ko'rish mumkin. Kartinadagi voqea bulutlar bilan qoplangan tush vaqtida sodir bo'lgan. Natyurmortdagi narsalarning yorug' – soyasi bir – biridan kam farqlanadi. Kechki yoritish holatidagi natyurmort rangtasviri misolida rassomni boshqa “Traktorchilarning kechki ovqati” asarida ko'rish mumkin. Narsalarning yoritilgan qizil, to'q sariq ranglar bilan, soyali esa quyuq to'q ranglarda tasvirlangan. Kartinada keskin ranglar gammasi o'yini yaratilgan bo'lib, asar nihoyatda jozibali yaratilgan.

Manzarali rangtasvirning keyingi bosqichida ko'p seansli davomli etyud mashqlari bo'lib, ilgari o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni eslash, amaliy ko'nikmalarni qo'llash hamda yangiliklarini o'zlashtirish kerak.



Uzoq vaqtli etyudlarda shakllar puxta ishlanishi bilan farqlanishi kerak. Ularni bajarish vaqti 2-4 soatdan (bir seansli) bir necha o'n soatgacha (ko'p seansli), davom etishi mumkin. ko'p seansli etyud quyoshda xam, bulutli ob – xavoda xam belgilangan bir vaqtida bajarilishi lozim.

Manzara mazmuni uning hayotiy mavzusi naturaning yaxlit ko'rinishi plastik – kompozitsiya munosabatlarida ham, koloritda ham asosiy aniqlash kompozitsiyaning ajralmas qismidir. Shuning uchun davomli etyud bajarish jarayonida kompozitsiya syujetini puxta o'ylash, taxlil etish va uni tasvirlash muhimdir. Tasvirlash tekisligida obyektlar va narsalar joylashuvini mukammal tasavvur qilish zarur. Manzara obyektiga yaqinlashib yoki uzoqlashib joyni xususiyatlarini o'rganish, ko'rish nuqtasini topish mumkin. Kompozitsiyada osmon bilan yer va boshqa obyektlar orasidagi munosabatlarni aniqlash juda ham muhimdir.

Ma'lumki narsalar katta masofada hajmliligini, relefligini yo'qotib siluetli tekislik xarakteriga ega bo'ladi. Old ko'rinishdagi narsalar ancha hajmli, soya-yorug'i kontrast bo'lib ko'rinadi. Yaqinda joylashgan yashil dala masofa uzoqlashgan sari yashil rangdor bo'yog'i asta – sekin moviyga o'tadi. Olisdagi to'q narsalar ochroq va ko'kimtir bo'lib ko'rinadi. Quyosh nurida bulutlar va uzoqdagi qorli tog' cho'qqilari ham qizil to'q sariq ranglarda kiradi.

Tuman, chang yoki tutun bilan to'yingan fazoda narsalarning siluet aniqligi pasayadi. Toza xavoda masofadagi shaklning aniq tashqi ko'rinishi ozgina o'zgaradi.

Old ko'rinishlarni tasvirlashda narsalarning shaxsiy ranglari uzoqdagilarda esa shartli ranglar narsalarni uzoqlashtiradi va aksincha, narsalarning rangi ularni xuddi old ko'rinishda biron – bir narsani “Yaqinlashtirish zaruriyatini bo'lsa ancha lokallik (narsa) mohiyatini rangga qaratish lozim”. Etyudning qandaydir qismini “uzoqlashtirish” zaruriyati tug'lsa unda shartli ranglarni qo'llash kifoya.



Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand ta'rifi til ojiz. Azim shahar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun bu yerga, albatta, tashrif buyurish lozim. Bejizga bu ko'hna kent borib ko'rish shart bo'lgan dunyodagi 50 ta shahardan biri sifatida e'tirof etilgani yo'q.

Samarqandning Registon maydonida ikki yilda bir marta o'tkaziladigan "Sharq taronalari" musiqiy festivaliga tashrif buyurgan xorijlik mehmonlar nafaqat Samarqand shahri, balki viloyatning Pstdarg'om, Payariq, Jomboy, Urgut, Toyloq, Samarqand kabi tumanlariga ham kelib, hududlarning o'ziga xos jihatlari bilan tanishish baxtiga musharraf bo'lmoqdalar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'tgan yil aprel oyida **Samarqand** viloyatiga tashrifi davomida takrorlanmas tarixiy, madaniy, me'moriy meros obyektlari bilan turistlarni keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ziyorat turizmini jonlantirish, umuman, qadimiy zaminning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator ko'rsatmalar berilgan edi. Shundan kelib chiqib, ayni paytda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, **Samarqand** viloyatida ziyorat turizmini amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olingan.

Hududda 1105 ta arxeologik, 670 ta me'moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental, 21 memorial toifaga kiruvchi jami 1851 moddiy-madaniy meros obyekti mavjudligi bu boradagi imkoniyatlar nechog'lik yuqoriligi ko'rsatadi. Ziyoratchi sayyohlarga Amir Temur maqbarasi, Registon ansambli (Sherdor, Tillakori, Mirzo Ulug'bek madrasalari), Bibixonim va Xazrati Xizr masjidlari, Shohi Zinda yodgorligi, Xo'ja Doniyor ziyoratgohi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, Samarqand tumanidagi Nodir devonbegi kompleksi, Xo'ja Ahror Valiy masjidi, Urgut tumanidagi G'avsul A'zam, Xo'ja Omon, Chor Chinor ziyoratgohlari, Payariq tumanidagi Imom Al Buxoriy majmuasi, Nurobod tumanidagi Xazrati Dovud ziyoratgohlari yo'nalishlari bo'yicha xizmat ko'rsatiladi. Barcha ziyoratgohlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalari orqali jamoat tartibi nazoratga olingan, sayyohlar va mehmonlarning kirish chiqish jarayonlari bevosita turoperatorlar hamda ichki ishlar organlari vakillari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yangi marshrutlarga O'zbekiston tarixi, Afrosiyob, O'lkashunoslik muzeylari, Paxtachi tumanidagi Dobusiya shahristoni, Payariq tumanidagi Chelak-Ko'ktepa tarixiy yodgorligi, Maxdumi A'zam ziyoratgohi

va boshqa ziyoratgohlar kiritilgan. Xullas, Samarqand viloyatdagi turizm imkoniyatlari xususida ko'p va xo'p gapirish mumkin. Yaxshisi, o'zingiz bir kelib keting, qadim Samarqandga!

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozitsiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinli bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH.



Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

3.3§. Tasvirlashda ijodiy jarayon mohiyati va uning asosiy bosqichlari.

Manzara janrida kompozitsiya ishlash qonun-qoidalari va uning tasviriy san'atdagi ahamiyati.

Ma'lumki, san'atning turlari nihoyatda ko'p bo'lib, ular adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy-bezak, sirk, televideniya, tasviriy san'at hisoblanadilar. "Tasviriy" atamasi "tasvirlash" so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq, tosh, gips, yog'och shuningdek, boshqa badiiy va tashlandiq materiallar yordamida har xil obrazlarni va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi. Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va hayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat hodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Shu qatori tasviriy san'at asarlari kishilarga katta kuch bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar.

Harakat - borliqning ajralmas xususiyati bo'lgan o'zgaruvchanlikni (Barqarorlik va o'zgaruvchanlik) ifodalovchi falsafiy kategoriya tushunchasi

imkoniyatlarning voqelikka aylanishini, ro'y berayotgan hodisalarni, olamning beto'xtov yangilanib borishini aks ettiradi.

San'at asarlaridagi tabiat ne'matlaridan ruhiy ozuqa olish, hayotdan zavq olish orqali ulardan bahramand bo'ladilar, dam oladilar.

Ayniqsa, manzara janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada

faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'utoshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz



manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da bahor", Z.Inog'omovaning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Temurovning **"Bibixonimda bahor"**, **"Ulug'bek madrasasi"** asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

San'at asarlarini tahlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z mohiyatini asta – sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo'la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy – jamiyat san'at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko'ndalang qo'yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratib o'rganamiz.

1. Kompozitsiya qonunlari.
2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiya usul (yo'llari). Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish.

Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir u bir elementni oraliqda galma –gal qaytarilishidir. Asar g'oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyani rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud bitiruv malakaviy ishiga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravishda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi xaqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ldik.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'ati ustalarini merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyanini ham o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalarini mazmuni va g'oyaga bo'ysunish kompozitsiyani asosiy qonunlari deb hisoblanadi.

Bu qonunning belgilari E. Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan kompozitsiyada birinchi yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi.

Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «palatno», oraliq harakter nusxa, imo – ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I.Repinning «Krestno'y xod v Kurskoy gubernii» kartinasi bir qarashda yaxlit «pyatno» shaklida ko'rinadi.

Kompozitsiyadagi omma – xaloyiq tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Nihoyatda ko'p sonli xaloyiq jamoa tasvirlangan bo'lsada, har bir kishi harakteri, nusxasi salbiy, ijobiy obrazlar, sinfiy qarama - qarshiliklar, xullasi rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Haqiqat qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeani vaziyatning o'ziga xosligi. A. Savrasovning «Qora qag'alar uchib keldilar», I. Levitaning «Oltin kuz», A. Kuindjining «Qayinzorda», A.Ro'lovning «Havo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi

tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi – bu sodir bo‘layotgan voqea mavzuini, harakat holatini vaqtini tasvirlaydi.

Yu. Pimenev «Yangi Moskva», «Ertangi ko‘chalarda to‘y» asarida ko‘z oldimizda o‘zgarayotgan harakatdagi zamonaviy shahar hayotini ko‘rsatgan. To‘y marosimini yo‘nalishida kelajak hayotga shaxdam qadam tashlayotgan xalqlarning holatidir. Tipizatsiya qonunining uchinchi belgisi bu – yangilikdir.

Realistik san’at xaqiqatni to‘g‘ri ifoda etib qolmay, rassom his tuyg‘ularini, estetik go‘zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Samarqand - Samarqand viloyatidagi shahar. Viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi (1938 yildan). 1925-30 yillarda Respublika poytaxti. O‘zbekistonning jan.g‘arbida, Zarafshon vodiysining o‘rta qismida (Darg‘om va Siyob kanallari orasida) joylashgan.

1970-1980 yillarda G‘.Abdurahmonov, F.Toxirov. R.Choriev, K.Bogaduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko‘plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A. Nuritdinov, O.Qozoqov, Z. Islomshikov, A. Mo‘minov, A. Mirsoatov kabilar mustaqil O‘zbekiston go‘zal tabiatini madx etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Kontrastning mohiyati shundaki, bir-biriga keskin qarama-qarshi bo‘lgan buyumlar (predmet) yoki holatlar birgalikda yangi tuyg‘u va hissiyotlarni uyg‘otadi. Rangtasvir san’atida kontrast universal vazifani bajaradi. Kontrastning ramziyligidan ma’lum bir dunyoqarash, mazmunni ochib berish maqsadida foydalaniladi. Kontrast shakl yasovchi elementdir, u (bezakdorlik) dekorativlilik xususiyatlarini yaratishda ishtirok etadi. U nur – soya o‘yini, chiziqli perspektiva bilan birga fazoviy chuqurlikni yaratishga ko‘mak beradi. Rang uyg‘unligi, kolorit, nur – soya kontrastni o‘z ichiga oladi. Kontrastning ikki turi bo‘lib – tabiiy-ilmiy aspektlar yordamida o‘rganilib, hodisalarni psixofiziologik va estetik nuqtai - nazardan bajariladigan tabiiy-ilmiy, hamda badiiy ifodalilik vositalari tizimida kontrastning o‘rni aspektlarga bo‘linadi. Kontrastning klassik misoli bo‘lib – qor ustidagi soyalar hisoblanadi.

Rang hissiyoti deganda – rangni murakkab his etish jarayonini boyitish tushuniladi, bunda nafaqat rangning doimiy xususiyatlari xarakteristikasi, balki rang bilan bogʻlik tasavvur, timsol, oʻxshatma (assotsiatsiyalar)larning murakkab tizimi talqin etiladi.

Rang uygʻunligi mutanosibli, muvozanat, hamohanglik kabi sifatlar bilan belgilanadi. Qonuniyat uygʻunlikning bosh belgisi hisoblanadi.

Ushbu qonuniyatlar tufayli tomoshabin ranglar majmuasini tartibga solingan estetik – ijobiy jamlanma sifatida qabul qiladi.

Rang timsollarning ruhiy (emotsional) xarakteristikasini yaratishda qatnashadi. Rangni his qilishda hissiyotlar turli xil boʻladi. Umuman bu kayfiyat – xursandchilik, qaygʻu, iztirob, quvnoqlik hissiyotlardan iborat.

Taniqli nemis shoiri Gyotening soʻzlariga koʻra, koʻz yashil rangdan lazzatlanadi. Sariq rang jozibali boʻlib, u iliq taassurotlar va xush kayfiyatlilik uygʻotatadi. Koʻk rang esa soya – salqinni eslatib, tanada sovuqlikni hosil etadi. Qizil rang jiddiylik, obroʻ bilan bir qatorda, joziba va nazokatlik haqida taassurot beradi. Gʻarbiy Yvropada yashovchi inson ranglarni mana shunday qabul qiladi.

Rang nazariya semantikasi nuqtai nazaridan qiziqarlidir. Tojik olimi A.Qurbonmamadov olib borgan tadqiqotlarga koʻra, agarda soʻfiy ilohiy goʻzallikka choʻmish holatida boʻlsa, u qora rangli kiyimda boʻlishi kerak, agarda u ilohiy yuksaklikka choʻmish holatida boʻlsa oq rangli kiyimda boʻlishi lozim. Shuningdek ular koʻk, sariq va boshqa ranglardagi kiyimlarni ham kiyishgan. Soʻfiylar nazarida rang mistik quvvatga ega boʻlib, u eʼtiqod qiluvchilarga ham ruhan, ham jismonan taʼsir oʻtkazgan. Oq rangni ular soflik, tozalik, pokizalik, koʻngilochar ramzi sifatida qabul qilganlar. Eʼtiqod qiluvchilar oq rangni begʻubor, dunyo neʼmatlaridan voz kechish ramzi deb bilganlar. Qora rang sufizmda inson ongi anglab eta olmaydigan qandaydir yashirin bir sir ramzini anglatgan. Qora rang sarosimalik va qaygʻu, insonning Paygʻambar oldida kuchsiz ekanligini isbotlovchi rang deb bilingan. Qora rangda kiyingan insonning qalbi – boshqalar uchun sirlar kitobi sir boʻlgan.

Qora rang – zulm, yovuzlik, baxtsizlik, halokat va ayriliq rangidir. Bu ramzlar ko‘pincha Sharq nazmida (she‘riyatida) qo‘llanilgan. Ko‘k osmon rangi, ochilmas sir, xavf-xatar va ofat belgisi sifatida ta‘riflangan. Ko‘k rang etik mazmun ham baxsh etgan. U kamtarlik, soddalik, va abadiylikni anglatgan, hamda mustahkamlik va irodalik ramzi sanalgan. Yashil rang – sokinlik, osoyishtalik va Xudo bilan tilsiz muloqotda bo‘lish rangidir. U ko‘rish qobiliyatini ravshanlashtirib, etik jihatdan saxiylik, tobe‘lik, Xudoga bo‘lgan sadoqatni anglatgan.

Shunday qilib, ushbu bitiruv malakiy ishida “Samarqand manzaralarida etyud” mavzusida ishlangan kompozitsiya uchun foydalanilgan ranglar va ularning psixologiyasi bilan tanishdik.

Bundan tashqari mavzu asosida ishlangan kompozitsiyada rassom-pedagoglarning psixik protsesslari muhim ahamiyatga ega. Ularda ana shu psixik protsesslar yuksak darajada rivojlanib, taraqqiy etgan bo‘lsa, rassom yaratgan har qanday asar o‘zining ruhiy olamini ocha oladi. Quyida “Samarqand manzarlarida etyud” mavzusida ishlangan.



Tasviriy san‘at asarlarining har biri o‘zining ijtimoiy-psixologik xususiyatiga ega. Ana shu xususiyat ularning pedagogik tarbiyalovchi imkoniyatlari katta ekanligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy psixologiyada an‘ana ajdodlardan avlodlarga o‘tib keluvchi, o‘z odatlari, qoidalari, qadriyatlari va tasavvurlariga ega, tarixan shakllangan faoliyat va xulq-atvor shakl sifatida talqin qilinadi. An‘analar milliy xususiyatga ega, ular millat hayotidagi o‘zgarishlar bilan birgalikda o‘zgarib, yangilana boradi. An‘analar odamlarning turmush tarzi, madaniyati, ma‘naviyatini tartibga solib turuvchi

muhim omildir. Tasviriyl san'atda manzara janrida kompozitsiya ishlash murakkab jarayon bo'lib, butun ijodiy kuchni mujassamlashni, ishda aniq muntazamlikni talab etadi, shuningdek, doimiy kuzatishni va o'rab turgan hayotimizni o'rganishni hamda asarda ijtimoiy hayot tarzini targ'ib qilishni taqozo etadi.

Buyuk san'at sohiblarining betakror asrlaridagi ilg'or g'oyalarda badiiy ijod olamining yashirin qirralari yoshlarimiz ongida uzoq o'tmishdan hikoya qiluvchi ertaklar kabi qalblarda go'zal tuyg'ular uyg'otadi. Tariximizda o'chmas iz qoldirgan sahifalar yoshlarimiz ruhiyatini yanada boyitadi.

Ijodkor har bir asariga insonlar qalbida joy olishi uchun unga yurak ko'rini to'kadi. Vujudida oqayotgan jo'shqinlik tanaga jon bag'ishlaydi. Rassom san'at asarini yaratishda o'zida katta irodani ko'rishi lozim. Bu ishining muvofaqqiyatli chiqishiga turtki bo'ladi.

Tabiat mavzusida ishlanadigan kompozitsiyada ijodkorning irodaviyligi – ijod kuchining samarasini belgilaydi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri ekanligin hisobga oladi. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsa-da, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq. Irodasizlik ma'naviyatning kuchsizlanishiga olib kelishi, so'ngra jismoniy kuch va insonda dangasalik va hatto ongsizlikka olib kelishi mumkin. Bu holda insonning biror ahamiyatli narsa yaratishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Iroda psixologik nuqtai-nazaridan o'zida shaxsning ongli ravishda o'z xarakterlarini boshqaradigan psixik jarayon bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi ko'nikmasini egallashdagi urinishlarida namoyon bo'ladi. Iroda maqsadga etish uchun aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ongli ravishda boshqara olish yoki aksincha qandaydir voqeani amalga oshirmoqlikdir. U faqat insonga xosdir. Iroda oddiy va murakkab harakatlar orqali amalga oshadi. Murakkab irodaviy harakatlar avvalo, anglash va masalani qo'yish, masalani qo'yish va rejalashtirish, rejalashtirish va maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Iroda ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi: harakatchanlik, mustaqillik, keskirlik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik va o'z-o'zini boshqara olish. Irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar – hayol, sezgi, xotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi.

Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana rassomning shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi. Asar yaratayotgan ijodkorda avvalombor ilhomlanish vujudga kelishi kerak.

Ilhomlanish – insonning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruxiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilhomlanish – go'yo ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan qattiq bosim berganday tuyulsa-da, lekin amaliy jihatdan rassom uchun bu vaziyat juda yengil kechgan, unda hamma narsaga oson erishilgan, ijodiy topshiriqlar juda tez echilgan bo'ladi. Bu yengillik shu narsa bilan bog'liq bo'ladiki, bunda rassom katta hayotiy taassurotlar zahirasi ega bo'ladi va katta qiziqish va quvonch bilan ishlagan edi. Bunda uning ijodiy hayoli va obrazli tafakkuri faol ishlaydi. Bularning barchasi sonning sifat darajasiga o'tishiga – natijada, qattiq ilhom bilan ishlangan mehnat badiiy asarni dunyoga keltiradi.

Xayol – ijodda asosiy va o'ziga xos natija ko'rsatuvchi ijodiy kuchdir. Badiiy ijodda uning ixtiyoriy, ixtiyorsiz, yaratuvchi ijodiy xayol kabi turlarining barchasi ishtirok etadi. Bular ichida albatta ijodiy faoliyatda ijodiy xayol katta o'rin tutadi.

Intuitsiya – sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo'lib, inson ruhiy faoliyatida – ya'ni ijodiy mehnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga so'zsiz intuitsiya xotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo'ladi.

Intuitsiya ob'ektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo'lsada, uni rivojlantirish yo'llari ham bordir. Ulardan asosiysi - organizmning biologik

sifatlarini tarbiyalashdir (rassomning ko‘zi, qo‘shiqchining ovozi, musiqachining qulog‘i va barmoqlari, raqqosaning qomati) kuzatuvchilikni o‘stirish, xotiraning hajmi va ishchanligini ko‘tarish, tafakkurni rivojlantirish (jumladan, obrazlilikni), xayol, hissiyotni tushunish, birmaromlilik, uzluksiz mehnat va yangi yechimlarni har tomonlama izlash kabilardir.

Tafakkur – ijod kuchlaridan biri bo‘lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda, idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o‘ynaydi. Xotira vositasida, ya’ni, badiiy asar yaratish maqsadida, tafakkur ishtirokida borliqni chuqur va har tomonlama bilishning oliy jarayoni hisoblanadi, predmet va voqealarning belgilari va o‘zaro biriga qonuniy bog‘langanligi bilan, umumiy va ichki xususiyatlarini ochishga yo‘naltirilgan holda namoyon bo‘ladi.

Badiiy asar inson faoliyatining boshqa sohalaridagi kabi, tafakkurning mahsuli hisoblanadi. San’at asari faqat tasviriy materialni o‘z ichiga olibgina qolmay, balki g‘oyaviy-estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi. Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, u ijodiy xayol bilan birga xarakatlanadi va san’at spetsifikatsiyasi xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda ishlaydi.

Emotsional to‘lqinlanish – ijodning kuchlardan biri sifatida rassom uchun juda zarur hisobladi. U shuning uchun zarurki, ular orqali hayotdan ancha yorqin taasurot olishnigina emas, balki rassom o‘zida bu to‘lqinlanishni o‘tkazadi.

Shunday qilib hissiyot reproduktiv ijod kuchi sifatida olamni aks ettiruvchi, ayni bir vaqtda hayotda yangilik yaratishga yordam beruvchi sifatida san’atga individual munosabat paydo qiladi va borliqning obrazini shoirona tasvirlashga harakat qiladi.

Xotira – xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o‘z navbatida o‘zida eng zaruriy psixik jarayonni – odamning o‘tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so‘ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o‘tmish tajriba mazmuni bilan

bog‘lamasdan xotiraning aralashuvisiz borliqni, jumladan, badiiylilikni ham idrok etib bo‘lmaydi. Xotira badiiylilikni aks ettirishda xizmat qiladi. Inson hayotida va har qanday faoliyatida xotirani chetlab o‘tolmay qoladi, xususan u o‘sha taassurotlar bilangina yashab yuradi. U o‘tgan, ko‘rganlarini, anglaganlarini va taasurot materiallarini tahliliga ko‘ra, tafakkurning natijalaridan foydalanishi zarur bo‘ladi. O‘tmish tajriba faqat xotira evazigagina saqlanib qolishi mumkin.

Rassomning xotirasi yetarli taassurotlar zahirasiga ega bo‘lgandagina u naturasiz ishlay oladi. Tasviriyl irod xotiraviyl obrazlarsiz bemaqsad va befoydadir.

Naturadan ishlashda olingan tasavvurlari yig‘indisi va ko‘rish taassurotlari (to‘liq obrazli) asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazlar yaratishga imkon beradi. Rassom chizishni, yozishni, yasashni va hokazolarni tasavvur va xotira asosida bajarishi, u naturadan qanday ishlasa, «o‘zidan» ham shunday ishlay olishi shart. Xotira boy bo‘lmog‘i uchun rassom uni doimo rivojlantirmog‘i, mashq etib bormog‘i zarurdir.

Hech bir rassom o‘zi yaratayotgan asarini ya‘ni predmetini, psixologiyasini hamda u to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni bilmay turib uni tasvirlay olmaydi.

“Samarqand manzarasida etyud” mavzusida kompozitsiya ishlash mashg‘ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

Tasviriyl san‘at o‘quv mashg‘ulotlarida “Samarqand manzarasida etyud” mavzusida kompozitsiya ishlash o‘z oldiga:

- manzara janrida kompozitsiya ishlash bo‘yicha bilim berish;
- ijodkorlikni tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish;
- bilish aktivligini oshirishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish yo‘lida o‘quvchilar bilan o‘qituvchi rahbarligida bir qator o‘quv-tarbiyaviyl ishlarni olib borish ko‘zda tutiladi.

Kompozitsiya o‘quv mashg‘ulotining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda keng, umuminsoniy dunyoqarash, jamiyat taraqqiyoti g'oyasi uchun kurashishni shakllantirish.

2. O'quvchilarda badiiy did, badiiy estetik madaniyatni tarbiyalash.

3. O'quvchilarda: a) obrazli tafakkur; b) ijodiy fikrlash; v) ko'rish xotirasi kabi badiiy qobiliyatlarni o'stirish.

4. Asarlarni kompozitsion qurilishini tahlil qilish bilan birga asarni yaratilish tarixi, uni yaratish jarayoni va bosqichlarini o'rganish.

5. San'at asarlarini kompozitsion masalalar aspektida tahlil etish bo'yicha bilim va malakalarni egallash, hamda undan o'z mustaqil ijodlarida foydalanish.

6. O'quvchilar tomonidan o'quv mashg'uloti sifatida kompozitsiya ishlashning nazariy asoslari o'rgatish.

7. O'quvchilar bilan kompozitsiyaning nazariy asoslarini san'at asarining tarixiy rivoji va amaliy yaratilishi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish.

8. O'quvchilarda badiiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish maqsadida:

a) o'quvchilarni rassom nuqtai-nazari bilan tevarak- atrofni maxsus bir maqsadga qaratilgan g'oyaviy-badiiy kuzatishga o'rgatish;

b) hayotiy taassurotlarga ijodiy holda yondoshishga o'rgatish, xotirani boyitish va bu taassurotlarni xaqqoniy, obrazli holda ijodda tasvirlash;

v) o'quvchilarni badiiy kuzatish asosida qoralama, etyud, homaki tasvirlar chizish, naturadan har xil mashq va izlanishlar olib borish, naturadan obrazlilik holatlarini topish, kompozitsion ishlar bajarish.

9. Mazmunida obrazli xulosa bo'lgan kompozitsiya yaratishga o'rgatish.

10. Kompozitsion mahoratni egallash, ana shu bilim va malakalarni o'quv va mustaqil ishlarida o'rinli ishlata olish.

“Yozgi etyud” mavzusida kompozitsiya ishlashning tasviriy san'at darsida amaliy-auditoriyaviy ishlari quyidagi tartibda olib boriladi:

a) kirish suhbat va topshiriqlar olish;

b) amaliy mashq bajarish;

v) bajarilgan ish muhokamasi, uni mustahkamlash va xulosa chiqarish.

Mashg'ulot davomida o'quvchilar kompozitsiya bo'yicha mustaqil uy vazifalari ham bajarib boradilar. Uy vazifalari bajarishning turli ko'rinishlarini tavsiya qilish mumkin, masalan ulardan:

- a) kompozitsiya eskizi bo'yicha ishlash;
- b) amaliy topshiriq mavzusiga bog'liq bo'lgan holda tevarak-atrofni, hayotni kuzatish;
- v) mavzu bo'yicha etyud, qoralama va homaki rasmlar bajarish;
- g) kompozitsion fikrlashni o'stirish mashqlarini (ranglar koloritini his qilish, kompozitsion yaxlitlikni topish) bajarish;
- d) kompozitsion vazifalarga oid yangi materiallar bilan tanishib borish;
- e) adabiyot va muzey materiallari asosida maishiy hayot va davr qahramoni xarakterini o'rganish kabilar bo'lishi mumkin.

IV. XULOSA

Bugungi kunda har bir shaxsni grafik bilimga ega bo'lishi uning o'ziga ham, jamiyatga ham suvdek zarur. Shunga ko'ra fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avvaldanoq, – “Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi” – degan edi.

Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni yaxshi bilaganlar. Shunga ko'ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleyev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar.

Xullas, har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga kata ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Agar har bir o'qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yusak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o'quvchi uchun juda oson va yengil bo'lardi, hatto o'zlashtirmovchi, o'quvchini bo'lishi ancha qiyin bo'ardi. Shularga ko'ra bugungi maktab o'quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga kata e'tibor berilmoqda. Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jaxonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritiladi.

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'p bo'lgan.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Talabalar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go'zalliklarini chuqur idrok etadilar.

Ma'lumki, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayn-konstruktor, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki biron bir sohani yaratuvchisi bo'adilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Hatto uy bekasi ham rasmni ko'ra olishi, tushunishi, bu zamonning eng zarur faoliyatidir. Hozirgi davrda har bir erkak zoti mashina haydashni, texnika bilan shug'ullanishiga, uy bekalarini esa dazmol, tikuv mashinasi, radio, televizor, kirish mashinalari, muzlatgich, elektr plita, sut, qaymoq olish mashinalari kabi yuzlab texnik buyumlar bilan shug'ullanadilar. Ularga bu asbob-texnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun grafik bilim va malakalar darkor. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: Sharq, 1997.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi kontseptsiyasi.-Toshkent, 1995.
3. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.-Toshkent: SHarq, 1999.
4. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi.-Toshkent: O'qituvchi, 1984.
5. Бакушинский А.В. Художественное творчество и воспитание. Исследование и статьи –Москва: Сов. художник, 1981.
6. Boymetov B. , Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. Toshkent, 1995.
7. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati.-Toshkent: HBM, 1992.
8. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.-Toshkent: Mehnat, 1994.
9. Nabiev M. Rangshunoslik.-Toshkent; O'qituvchi, 1995.
10. Никонорова Н.М. Наглядные пособия и оборудования для занятий изобразительным искусством.-Москва: Просвещение, 1975.
11. Oyidinov N. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. -Toshkent; O'qituvchi, 1997.
12. Oripov B. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.
13. Umarov A. Ahmedov M. Tasviriy san't atamalarining izohli lug'ati. –Toshkent: O'zTSMU, 1998.
14. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi.-Toshkent: Fan, 1977.
15. Sharq miniatyura maktablari.-Toshkent: G'ofur G'ulom, 1989.
16. Qosimov Q. Naqqoshlik.-Toshkent: O'qituvchi, 1990.
17. Xasanov R. Tema asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya.-Toshkent: O'qituvchi, 1980.

18. Xasanov R. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari.–Toshkent: O'qituvchi, 1986.

19. Xasanov R. Beshinchi sinfda tasviriy san'at darslari.–Toshkent: O'qituvchi, 1997.

240. Xasanov R. Tasviriy san'at va badiiy mehnat. Birinchi sinf uchun darslik.–Toshkent: O'qituvchi, 1998.

21. Xasanov R. Uchinchi sinfda tasviriy san'at darslari. O'qituvchilar uchun qo'llanma.–Toshkent: O'qituvchi, 1988.

22. Xasanov R. Tasviriy san'at . 1-sinf o'quvchilari uchun darslik.–Toshkent: Yozuvchi, 2002.

23. Xasanov R. Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish.–Toshkent, 2000.

24. Xasanov R. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. O'quv qo'llanma.–Toshkent, 2003.

VI. ILOVALAR.

